



UDK:908

*Moxlaroy ABDUKAMOLOVA,*  
*Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail:mohlaroyabdukamolova@gmail.com*

*IPU dotsenti B.Toshpulatov taqrizi asosida*

### HOJIB TOSH FAOLIYATINING TARIXIY MANBALARDAGI TALQINI

Annotatsiya

Maqolada Somoniylar davlatining X asr oxiridagi siyosiy jarayonlari fonida turkiy kelib chiqishga mansub harbiy arbob — Hojib Toshning siyosiy va harbiy faoliyati tahlil qilingan. Tadqiqot Toshning saroyga kirib kelishi, sipohsolorlikka ko‘tarilishi, Xurosondagi islohotlari hamda Simjuriylar va Foiq bilan munosabatlari yuzasidan ilk manbalar asosida olib boriladi. Maqola Hojib Tosh faoliyatining Somoniylar davridagi harbiy-boshqaruv tizimi, turkiy g‘ulomlar elitasi o‘rni va davlatning siyosiy parokandaligi jarayoniga ta‘sirini ilmiy jihatdan asoslaydi.

**Kalit so‘zlar:** Somoniylar, turkiy hojib, Abul Abbas Tosh, Foiq al Xossa, Utbiy, Husamuddavla, simjuriylar, Xuroson, Jurjon, Nishopur, harbiy elita, sipohsolor, g‘ulom, siyosiy inqiroz, siyosiy raqib, IX–X asrlar.

### INTERPRETATION OF HOJIB TOSH’S ACTIVITIES IN HISTORICAL SOURCES

Annotation

This article analyzes the political and military career of Hojib Tosh, a prominent Turkic military figure of the late Samanid period. The study examines his rise from a palace slave to a high-ranking commander, his administrative activities in Khurasan, and his relations with the Simjurids and Fa‘iq based on primary historical sources. The article highlights Tosh’s role within the Samanid administrative-military system and evaluates his influence on the processes of political fragmentation and state decline in the late 10th century.

**Keywords:** Samanids, Turkic hajib, Abul Abbas Tosh, Fa‘iq al-Khassa, Utbi, Husam al-Dawla, Simjurids, Khurasan, Jurjan, Nishapur, military elite, sipahsalar, g‘ulām, political crisis, political rivalries, 9th–10th centuries.

### ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ХОДЖИБ-ТАША В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Аннотация

В статье анализируется политическая и военная деятельность Хаджиба Тоша — видного тюркского военного деятеля позднесаманидского периода. Исследование, основанное на ранних исторических источниках, рассматривает его возвышение от дворцового гуляма до сипахсалара, его административные реформы в Хорасане, а также отношения с Симджуридами и Фаиком. Статья раскрывает роль Тоша в военно-административной системе государства Саманидов и оценивает его влияние на процессы политической дезинтеграции и упадка государства в конце X века.

**Ключевые слова:** Саманиды, тюркский хаджиб, Абу-л-Аббас Тош, Фаик аль-Хасса, Утби, Хусам ад-Даула, Симджуриды, Хорасан, Джурджан, Нишапур, военная элита, сипахсалар, гулям, политический кризис, политическое соперничество, IX–X века.

**Kirish.** Somoniylar davlati IX-X asrlarda Markaziy Osiyoda shakllangan eng qudratli siyosiy tuzilmalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, X asrning ikkinchi yarmi davlat ichki siyosati keskin o‘zgarishlar, saroy intrigalari, turli amaldorlar o‘rtasidagi ziddiyatlar va harbiy elita o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi bilan xarakterlanadi. Shu jarayonlar markazida turkiy kelib chiqishga mansub harbiy arboblardan – sipohsolorlar, hojiblar va saroy lashkarboshilari alohida rol o‘ynaganlar. Ulardan biri – Hojib Tosh Somoniylar davlatining eng ta‘sirli harbiy-siyosiy shaxslaridan biri bo‘lib, uning ko‘tarilishi ham, qilishi ham davlat ichidagi siyosiy kuchlar kurashidan ajralmas hodisadir. Toshning siyosiy taqdiri Somoniylar davlatining zaiflashuvi, Simjuriylar kabi mahalliy harbiy sulolalarning kuchayishi, amir saroyidagi guruhlararo kurash, Utbiy va Foiq kabi yirik arboblarning raqobati bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning faoliyati Xurosonning harbiy-iqtisodiy barqarorligiga, saroydagi siyosiy vaziyatga va mintaqaning umumiy siyosiy dinamikasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatgan.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Somoniylar davri siyosiy tarixida Hojib Tosh shaxsiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar kam uchraydi. Tosh haqida mavjud ma‘lumotlar asosan IX–XI asrlarga oid arab va fors tarixiy manbalarida tarqoq tarzda bayon qilingan. Ulardan eng

asosiylari quyidagilardir: Gardiziyning “Zayn al-axbor”, Utbiyning “Tarixi Yaminiy”, Ibn al-Asirning “Al-Kamil fit-tarix”, Narshaxiyning “Tarixi Buxoro”, hamda Bayhaqiyning “Tarixi Mas‘udiy” asarlari. Ushbu manbalarda Toshning saroyga kirib kelishi, sipohsolorlikka tayinlanishi, Simjuriylar va Foiq bilan ziddiyatlari, Utbiyning o‘ldirilishi va Toshning Jurjondagi so‘nggi yillari haqida asosiy ma‘lumotlar jamlangan.

Zamonaviy tarixshunoslikda Tosh shaxsi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri monografik tadqiqotlar mavjud emas. Biroq Somoniylar davlati, turkiy g‘ulomlar tizimi va Xuroson siyosiy tarixi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar Tosh faoliyatini umumiy tarixiy kontekstda baholashga imkon beradi. Xususan, V. V. Bartholdning “Turkiston tarixi”, R. N. Fryening “The Heritage of Persia”, C. E. Bosworthning “The Ghaznavids” kabi asarlarida Somoniylar harbiy elitasining o‘rni va turkiy g‘ulomlarning siyosiy roli haqida nazariy asoslar bayon etiladi. Ushbu tadqiqotlar Toshning yuksalishi va siyosiy qulashini kengroq struktural jarayonlar bilan bog‘lash imkonini beradi.

Maqolada manbalararo solishtirma tahlil asosiy metod sifatida qo‘llanildi. Arab va fors manbalaridagi ma‘lumotlar o‘zaro taqqoslanib, tafovutlar va mosliklar aniqlab borildi. Har bir manbaning yozilgan davri, muallifning siyosiy pozitsiyasi,

voqealarga bo'lgan munosabati hisobga olinib, matnlar tanqidiy tahlil qilindi. Toshning siyosiy roli Somoniylar davlatining umumiy tanazzul jarayoni struktural yondashuv asosida o'rganildi. Natijada tarixiy manbalar tahlili asosida Hojib Toshning Somoniylar davlatining X asr oxiridagi harbiy-siyosiy jarayonlardagi o'rni aniqlashtirildi va uning faoliyati davlat tanazzulining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholandi.

**Natija va Muhokama.** Toshning kelib chiqishi haqida manbalarda to'liq ma'lumotlar keltirilmagan bo'lsada, "Tosh" turkiy tillarda ko'plab shaxslar va joy nomlarida uchraydigan so'z bo'lib, "to'sh" yoki "tosh" shaklida o'qiladi. Shu bois, Hojib Toshning ismi uning turkiy kelib chiqishini ko'rsatishi mumkin [3]. Toshning siyosiy maydonga kirib kelishi dastlab "g'ulomlik" institutiga bog'liq bo'lgan [2;5]. Manbalarga ko'ra, u vazir Abu-l-Husayn Utbiyning otasi Ja'farga tegishli g'ulom bo'lgan va uni yaxshi xizmat qigani uchun Utbiyning otasi hukmdor (Mansur ibn Nux)ga sovg'a qiladi [2]. G'ulomlarning saroydagi o'rni yuqori bo'lib, ular harbiy tayyorgarlikdan o'tgach, katta lavozimlarga ko'tarilishi imkoniga ega edilar [6]. Toshning ham jismoniy kuchi, itoatkorligi, intizomi va siyosiy sezgirligi uni tezda saroy xizmatida yuqoriga ko'tardi. Toshning siyosiy faoliyatidagi burilish uning Xuroson sipohsolori lavozimiga tayinlanishi bilan bog'liqdir. Xuroson o'sha davrda Somoniylar davlatining eng katta, boy va strategik ahamiyatga ega viloyati bo'lib, uning boshqaruvi amalda davlat ichidagi ikkinchi eng qudratli mavqeni anglatardi. Toshning bu lavozimga tayinlanishi Simjuriylar sulolasining Xurosondagi ta'sirini cheklashga qaratilgan siyosiy qaror edi.

371/981-982-yili Abu-l-Hasan Muhammad ibn Ibrohim ibn Simjur Xuroson qo'shinlari qo'mondonligi vazifasidan chetlatildi. Uning o'rniga Abu-l-Abbos Tosh tayinlandi [7]. Ibrohim ibn Simjuriyning bu vazifadan ozod etilib Toshning qo'yilishi sababi esa Gardiziy asarida berib o'tiladi [5]. Mansur ibn Nuh taxtga o'tirganida juda yosh edi. Shu sabab davlat ishlarini Foiq al Xossa va hojib Toshga topshiradi. Hokimiyat tayanchini mustahkamlash uchun esa Xuroson hokimi Abul Hasan (Simjuriy) bilan quda bo'ladi va unga "davlat himoyachisi" degan unvon beradi. Abul Husayn Abdulloh ibn Ahmad Utbiyni vazirlikka tayinlamoqchi bo'lib, Abul Hasan (Simjuriy)ga maslahat uchun xat yozadi. U esa Abul Husayn Utbiyni juda yosh deb javob beradi. Shu paytdan boshlab vazir Utbiyda Abul Hasan (Simjuriy)ga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Uni amirga og'zaki yomonlashni boshlaydi va nihoyat amir uni lavozimidan ozod etadi. O'rniga Abu-l-Abbos Toshni sipohsolor etib tayinlaydi va unga "saltanat qilichi" (Husamuddavla) unvoni beriladi [5]. Shu yili uni Buxorodan Nishopurga yubordi. Abu-l-Abbos Tosh u yerda joylashib, Xurosonni ham boshqardi. Ishlari bilan shug'ullandi, Xuroson qo'shini ham unga itoat qildi [7]. Manbalarda bu bir yillik boshqaruv davri haqida juda yaxshi fikrlar bildirilgan. Hojib Tosh davrida Xurosonda tartib va yaxshi nazorat o'rnatiladi, kambag'allarga yordam beriladi [2]. Unga bu ishlarda vazir Utbiy yordam berib boradi. Toshning Xurosonga kelgach, tartibsizliklarni jilovlagani, soliq tizimini tiklagani, noiblarning zulmini to'xtatgani, harbiy intizomni mustahkamlab, xalq orasida obro' qozonishiga yordam beradi. Toshning islohotlari amir saroyidagi mavqeni mustahkamladi va uni Simjuriylarga nisbatan asosiy harbiy muvozanat kuchiga aylantirdi.

Aka-ukalaridan mag'lubiyatga uchragach, Faxruddavla Nuh ibn Mansurdan taxtni qaytarib olishda yordam so'raydi [2]. Amir Nuh Toshga yozgan maktubida ularga e'tibor berib, ikrom qilishini, qo'shin yig'ib ular bilan birga yo'lga chiqishini va o'z yurtlariga qaytarishini buyurdi [7]. Tosh buyruqqa bo'ysunib qo'shin to'plab Jurjonga yo'l oladi. Ibn al Asirda qo'shinning ko'pligidan Nishopur qo'shinlari bilan to'lib ketganligi yozilgan [7]. Tosh Foiqqa

Ray tomonida turib Muvayduddavla qo'shinlarini to'sib turushini aytadi. Biroq Foiq xiyonat qiladi. Toshning rejaları buzulib katta zararlar bilan qaytadilar [2]. Gardiziy Muvayduddavla tomonidan 7 ming kishilik qo'shin yuborilganligini yozib qoldirgan [5]. Ibn al Asirda esa voqealar rivoji quyidagicha: Jurjonga yo'l oldilar. Shahar oldiga yetib, u yerda to'xtashdi va shaharni qamalga olishdi. Muayyiduddavla, akasi Adududdavla va o'zining qo'shinlaridan iborat katta armiya bilan Jurjonda edi, lekin ular Xuroson qo'shinlariga yaqinlasha olmasdi. Husamuddavla ularni ikki oy qamal ostida ushladi. Ertalabdan ular bilan jang qilar, so'ngra orqaga chekinar edi. Jurjon aholisi oziq-ovqat tanqisligiga duchor bo'ldi; shunchalikki, arpa kepagini loy bilan aralashirib yeya boshladilar. Holatlari tobora yomonlashgach, ramazon oyida (mart 982) Jurjondan tashqariga chiqishdi. G'olib bo'ladimi, mag'lubmi — jang qilishardi. Xuroson qo'shini ularning chiqqaniga guvoh bo'lgach, avvalgi bir necha marta bo'lganidek, biroz jang qilishar, keyin to'xtaydi deb o'yladilar. Ikki qo'shin juda kuchli to'qnashdi. Xurosonliklar taxminlarida adashganini angladilar. Muayyiduddavla Xuroson qo'shinlari qo'mondonlaridan Foiq al-Xossa bilan yozishar, unga ba'zi va'da berib, o'z tomoniga og'dirishga urinayotgan edi. Nihoyat, Foiq uning taklifini qabul qildi va jang paytida mag'lub bo'lib chekinishga rozi bo'ldi [7]. Muayyiduddavlaning askarlari belgilangan kunda Foiq va uning odamlariga hujum qildi. Foiq va undagi odamlar mag'lub bo'lib orqaga chekinishdi, xalq ham uni kuzatdi. Faxruddavla jangga sabr bilan davom etardi. Husamuddavla qo'shinning markazida edi. Kechga yaqin jang qattiq qizidi. Xalq mag'lubiyatda bir-birini kuzatganini ko'rib, ular ham chekinayotgan qo'shinlarga qo'shilishdi. Muayyiduddavlaning odamlari Allohdan o'zgasi bilmaydigancha boyliklar egallashdi, juda ko'p oziq-ovqat ham qo'lga kiritildi. Husamuddavla, Faxruddavla va Kabus Nishopurga qaytadilar va holatni maktub bilan Buxoroga xabar berishdi. Yetgan javob maktubda qo'shin yuborilishini va Jurjon hamda Rayga qaytilishini va'da qilardi. Endi vazir Utbiy barcha qo'shinni Marvga to'plab o'zi bosh bo'lib borishini aytadi. Ammo bu safar Xuroson hukumatidan chetlashishini Utbiy sababidan deb o'ylab yurgan Abul Hasan Simjuriy Foiq bilan til birlashtirib Utbiyga suiqaqd o'ldirtiradilar [2]. Gardiziyda Abul Hasan Simjuriy tomonidan Foiqqa topshiriq berilganligi, Foiq saroy g'ulomlariga pul berib o'ldirtirganligi ta'kidlangan [5]. Vazir o'ldirilgandan so'ng Nuh ibn Mansur Husamuddavlagacha maktub yozib, davlatni boshqarishi uchun uni Buxoroga chaqirdi, Utbiyning o'ldirilishi sababli buzilgan davlat ishlarini tartibga solishni talab qildi. Shundan so'ng Husamuddavla Nishopurdan Buxoroga bordi va Abu-l-Husaynning o'ldirilishi voqeariga aloqador bo'lganlarning qo'lga tushirilganlarini o'ldirdi. Vazir al-Utbiy 372 (982-983) yili o'ldirilgan [7]. Tosh buni tekshirib yollanma qotillarni tutib ba'zilarini o'ldiradi, ba'zilarini hibsga oldi, ba'zilarini qochadi [2].

Toshning qudratga erishishida Utbiyning roli beqiyosdir. Utbiy davlatning asosiy siyosiy boshqaruvchisi sifatida Toshni o'zining harbiy tayanchi sifatida ko'rgan va unga tayanib siyosat yuritgan. Tosh Simjuriylarga qarshi kurashda Utbiyning asosiy quroliga aylangan. Biroq Somoniylar saroyidagi murakkab intriga Utbiyning o'ldirilishi bilan keskin o'zgaradi. Bu voqea Toshni siyosiy jihatdan himoyasiz qoldirdi. Uning eng katta tayanch kuchi yo'qoldi va bu hol Toshning keyingi taqdiriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatdi. Utbiy o'ldirilgach, Toshning siyosiy raqiblari — Foiq va Simjuriylar uning mavqeni zaiflashtirishga urina boshladilar.

Abul-Hasan ibn Simjur Xuroson qo'shinlari qo'mondonligidan ozod qilinib, o'rniga Abul-Abbos tayinlangach, Sijistonga bordi va u yerda joylashdi. Abul-Abbos, oldin zikr qilganimizdek, Jurjonda mag'lub bo'lib

ketgach va fitna qo'zg'alanganini ko'rgach, Sijistondan Xuroson taraflariga ketdi va Kuhistonga joylashdi. Uning Buxoroga ketishi bilan Xuroson boshliqsiz qolgach, Ibn Simjur Foiqqa maktub yozib, bu yerni egallash uchun uning roziligini so'radi, u ham rozi bo'ldi. Nishopurda uchrashib, o'sha hududdagi joylarni bosib oldilar. Abul-Abbos bu holatni bilgach, katta qo'shin bilan Buxorodan Marvga yo'l oldi. Ular orasida elchilar kelib ketdi. Nishopur bilan qo'shin qo'mondonligining Abul-Abbosga, Balxning Foiqqa, Hirotning Abu Ali ibn Abul-Hasan ibn Simjurga berilishi sharti bilan kelishib oldilar va shu asosda tarqalishdi, har biri o'z viloyatiga ketdi [7]. Mag'lubiyat siyosiy oqibatlariga ham olib keladi: Toshning amir oldidagi obro'si pasayadi, Simjuriylar esa kuchayadi. Bu taqsimot ayni damda Somoniylar davlatidagi parokandalikning kuchayganini ham ko'rsatadi.

Vazirlikka Abdulloh Ibn Aziz tayinlanadi. U sobiq vazir Utbiy oilasiga dushmanligi bilan mashhur bo'lib, vazirlikka kelishi bilan Toshni qo'shin qo'mondonligidan ozod etib [1], Abu Ali Husayn Simjurga topshiradi. Toshga oilasi bilan barcha boyliklarni topshirib Xurosondan ketish buyrug'i kelganida u qo'shinni yig'ib davlat va hukmdorga qilgan shuncha yaxshiliklari va xizmatlari esdan chiqib, uni ishdan bo'shatishganini va bu lavozimning boshqasiga topshirilganligini shunda ham sadoqati tufayli buyruqqa rozi bo'lib ketishini, kim u bilan ketishni istasa ishlarini davom ettirishlarini, ayrilishni istaganlarga ham hech qanday to'siq yo'qligini aytib o'ylab olishlari uchun 1 oylik ta'til e'lon qiladi. Natijada barcha askarlar uni qo'llab-quvvatlaydilar va hukmdorga xat yozib, uni vazifasida qolishini iltimos qiladilar. Vazir Abdulloh Ibn Aziz Toshning yolg'onlariga uchmaslikni aytib ko'p va'dalar bersada qo'shin bundan voz kechmadi [2]. Xurosondagi qo'mondonlar vazirga maktub yozib, Abul-Abbosni vazifasida qoldirishni so'rasha ham, u bu takliflarni qabul qilmadi.

Shundan so'ng Abul-Abbos Faxruddavla ibn Buvayhga maktub yozib, yordam so'radi. Tarixi Yaminida esa Muvayduddavla o'limi sabab taxtini qaytarib olganligi sabab Faxruddavla Toshga xat yuboradi Allohning va qo'shini yordamida saltanat tepasiga kelganini bayon etadi. Tosh ham uni tabriklab, davlatning baxtli kunlari kelganini yozadi [2]. O'z ahvoli haqida ham yozib dushmanlari tuxmati sabab hukmdor bilan oralari buzilganini yozib o'tadi. Faxruddavla bunga javoban unga hamisha ittifoqdosh ekanini, yordamga tayyor ekanligini ma'lum qiladi. Maktub bilan Abu Said Shibliyning mingta turk arab otliqlari bilan yuboradi. Nishopurga kelganda Xuroson qo'shin zobitlaridan biri Abdulloh Ibn Abdurazzoq ham unga qo'shilib Toshga sadoqat izhor qilish uchun yo'lga tushadi [2]. Tosh esa ular bilan Simjuriyga qarshi yurish boshlaydi. Nishopurda qarorgoh qurdirilar. Ular orasida bir necha kun davom etgan jang bo'ldi. Faxruddavla Abul-Abbosga ikki ming otliqdan ortiq yana bir qo'shin yubordi. Ibn Simjur Abul-Abbosning kuchini ko'rgach, kechasi Nishopurdan chiqib ketdi, Abul-Abbosning askarlari ham uni ta'qib qilib, ko'p mol-dunyo va hayvonlarni qo'lga kiritdilar. Abul-Abbos Nishopurni egalladi, so'ngra Amir Nuhga maktub yozib, uning tomoniga o'tish niyatida ekanini bildirdi va kechirilishini so'radi [7]. Abdulloh ibn Aziz maktubni bee'tibor qoldirdi. Nuh va uning onasiga Toshning xavfli ekani va buyruqlariga bo'ysunmayotgani va bu ketishda u hukmdorning o'rmini egallashi haqida aytib uni Toshni kechirishiga to'siq bo'lib turdi.

Tosh bu orada Simjuriy bilan ishi bo'lmadi Buxorodan javob kutib turganida Simjuriy Abul Favois Aduddavladan yordam so'raydi [2]. Forsda bo'lgan Abul-Favoris ibn Adududdavla ham amakisi Faxruddavla bo'lgan adovati tufayli ikki ming otliq askarni yordamga yubordi [7]. Foiq ham ularga qo'shiladi. Natijada Simjuriy katta qo'shin to'plab Toshga qarshi hujum qilishadi. Katta janglardan so'ng katta

yo'qotishlar bo'ldi. Nishopurda ko'p vaqt qamalda qolganligidan qo'shinda taqchilik sabab askarlar qochib ketishni boshladi [2]. Tosh bor kuchini yig'ib oxirgi marta hujum qildi. Lekin bu safar ham Simjur va o'g'li Abu Ali g'alaba qozondi. Tosh qo'shini qochib ketgach taslim bo'ldi [2]. Narshaxiyda ushbu jang sanasi 377/987-988-yil deb ko'rsatilgan [1]. Qo'lga olinganlarning yarmi o'ldirildi qolgani Buxoroga yuborildi va Ko'handiz qal'asiga qamoqqa tashlandi. Tosh esa Jurjonga Faxruddavla huzuriga ketdi [2]. Faxruddavla Uni juda yaxshi qarshi oldi, izzat va ikrom ko'rsatdi. Jurjon, Dihiston va Astarobodni unga va uning atrofida qilargalarga qoldirdi, o'zi Rayga o'tdi. Unga shuncha ko'p mol-dunyo, jang qurollari va anjomlari yubordiki, ularning tavfsigiga til ojiz [7]. Bu haqida Sohib Kafi Faxruddavlani xazinani bunday sarflamaslikka, boyliklari ortib ketgach ular dushmanlik qilishi mumkinligi haqida ogohlantirdi [2]. Faxruddavla esa unga javoban Toshning qilgan yaxshiliklari uchun butun boyliklarini, saltanatini va hatto kiyib yurgan kiyimini bersada kamligini aytadi. Tosh bir vaqtlar Faxruddavla uchun akalari unga yuborgan qimmatbaho o'lponlardan voz kechganini so'zlab beradi [2]. O'shanda Tosh men bir tola sochingni ham butun Iroq daromadiga sotmayman deb uni chorasiz vaziyatida ham akalarga topshirmagan ekan [2]. Uning oldida majburiyati bo'lmagan himoyasiz bir odamga ko'rsatgan bunday olijanob insonparvarligini Faxruddavla unutmagan edi [2].

Abul-Abbos va uning odamlari bir muddat Jurjonda qolib, Nuh ibn Mansurning kechirishini kutdi. Faxruddavla huzuriga Abu Said Shibliy yuborib Xurosonga qaytish uchun yordam so'radi. U Asfar ibn Kardavayah boshchiligida ikki ming otliq daylam askarlarini yubordi [2]. Nasr ibn al-Hasan ibn Firuzga ham xat yozib ularga qo'shilishini buyurdi. Toshning nomidan Abu Said Shibliy Nasrning qarorgohi bo'lgan Komsga yetib kelganida xiyonat yuz berdi. Bu xabar Faxruddavla yetgach qasos olish uchun Komsga yurish qilmoqchi bo'lib, Jurjondan Toshni ham chaqiradi. Buni eshitgan Nasr qo'rqib ketib Tosh vositachiligida undan uzr so'raydi.

Shu tariqa Tosh Jurjonda yashay boshladi va 379/989-990-yili bu yerda vabo tarqaldi [2]. Bu kasallikdan Tosh ham vafot etadi [4]. Bir rivoyatga ko'ra, zaharlanib o'ldirilgan [7]. Jurjonda uning qo'shini ko'plab zulm va tovlamachilik qilgani bois Toshning o'limi xabari tarqalishi bilan xalq ulamolari va qo'shinga hujum qilib, saroyini talaydi. Shu sabab Toshning motam marosimlari ham odatdagidek o'tkazilmaydi. Qo'mondonlikka uning opasini o'g'lini ko'tarishadi [2]. Lekin qo'shin zobitlari Xurosonga borib ushbu xabarni Abu Ali Simjuriyga yetkazadilar. Tosh Foiq va Simjuriydan qochib Jurjonda kelganida vazir Abdulloh Ibn Aziz Simjuriyning hujum qilishga undagan edi ammo u Daylam qo'shinlaridan yengilishdan va Toshning kuni uning boshiga tushishidan cho'chib, turli bahonalar bilan buni rad etib kelardi. Bu fursatdan foydalanib endi Simjuriy Jurjonga hujum qiladi va 3 mingga yaqin oddiy xalqni o'ldiradi [2].

Jurjonda Faxruddavla homiyligida yashagan yillar Tosh uchun qisqa muddatli siyosiy panoh bo'lsa-da, amalda u Somoniylar davlatidagi siyosiy jarayonlardan butunlay chetda qolgan davr edi. Uning vabo oqibatida vafot etishi nafaqat bir harbiy arbobning fojeali taqdiri, balki Somoniylar davlatining siyosiy tanazzuli fonidagi umumiy beqarorlikni ham aks ettiradi. Toshning vafotidan so'ng uning qo'shinlarining tor-mor qilinishi markaziy hokimiyat zaiflashganida harbiy guruhlarning qanchalik tez parchalanib ketishini ko'rsatadi. Toshning o'limi Somoniylar davlatining harbiy-siyosiy inqirozidan darak beruvchi muhim hodisa bo'lib, davlatning tezlashgan tanazzul jarayoniga sabab bo'lgan omillardan biridir.

**Xulosa.** Hojib Toshning siyosiy va harbiy faoliyati Somoniylar davlatining X asr oxiridagi inqiroz jarayonlarini

chuqur anglashda muhim manba sifatida qaraladi. Uning shaxsiy yuksalishi, hokimiyat tepasiga kelishi, siyosiy raqobatlardagi qatnashuvi hamda fojeali halokati aslida Somoniylar davlat me'yoriy boshqaruv tizimining zaiflashuvi va markaziy hokimiyatning amalda parokandalashuv jarayonining ko'zgusidir. Toshning o'rganilishi nafaqat bir shaxs tarixini tiklash, balki Markaziy Osiyodagi IX–X asr siyosiy strukturasi ichki mexanizmlarini tahlil qilishda ham muhim o'rin tutadi.

Toshning saroyga g'ulom sifatida kirib, harbiy-siyosiy elitaning yirik vakiliga aylanishi, Somoniylar davrida turkiy g'ulomlar institutining naqadar muhim siyosiy kuchga ega bo'lganini ko'rsatadi. Uning siphsolorlikka ko'tarilishi, Xurosonga tayinlanishi va markaziy hokimiyatning harbiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlari Toshning davlat barqarorligiga qo'shgan bevosita hissasini

namoyon etadi. Xuroson kabi strategik hududda tartib o'rnatish, iqtisodiy boshqaruvni tiklash va harbiy tizimni qayta tuzish jarayonlari Toshning davlatni ushlab turishdagi rolini yaqqol ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Hojib Toshning siyosiy faoliyati Somoniylar davlatida harbiy elita o'rni, turkiy g'ulomlarning siyosiy ta'siri, saroy intrigalari va mahalliy sulolalarning o'sib boruvchi kuchi kabi muhim tarixiy jarayonlarni yoritish imkonini beradi. Toshning yuksalishi va qulashidagi sabablar, uning faoliyatining makrosiyosiy jarayonlarga bog'liqligi, davlat ichki barqarorligining zaiflashuvi, harbiy elitaning siyosiy hayotga haddan tashqari aralashuvi va markaziy hokimiyatning strategik qarorlardagi sustligida namoyon bo'ladi. Uning taqdiri Somoniylar davlati ichki siyosiy mexanizmining so'nayotgan davrini ko'rsatuvchi eng yorqin misollardan biridir.

#### ADABIYOTLAR

1. Абу Бакр Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулев таржимаси. Ziyo.uz kutubxonasi.
2. Abu Nasr Utbiy. Kitobi Yamini. Translated from the Persian version of the contem for arly arabic chronicle of Al Utbi, by the rev. James Reynolds, b.a. – London: Printed for the oriental translation fund of Great Britain and Ireland. 1891. – 520p.
3. Бартольд В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия. Соч. 1 – Москва: Восточная литература, 1963.
4. Байхаки, Абу-л-Фазл. История Мас'уда(1030-1041) / Пер. с перс., введ., коммен. и прилож. А.К. Арендса. – М.: Наука, 1969.
5. Гардизи, Абу Саид. Зайн ал-ахбар. Украшение известий. Раздел об истории Хорасана / перевод с персидского языка А.К.Арендса. Введение, комментарии и указатели Л.М.Епифановой. – Ташкент: Фан, 1991. – 176с.
6. Низомулмулк. Сиёсатнома (Сияр ул-мулк). Форс тилидан таржима, сўзбоши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳид ва Афтондил Эркинов. Тошкент: Янги аср авлоди, 2010.
7. Ibnu'l Esir. Islam tarihi. El Kamil Fi't Tarih Tercumesi. / Ceviren Yunus Apaydin. Cilt 9. Istanbul: Turkiyat matbaacilik ve nesriyat, 1986. 469 s.



УДК 930.1

**Мухаммаджон ИСАМИДДИНОВ,**

*Профессор Ферганского государственного университета,*

*E-mail: mx.isomididinov@pf.fdu.uz*

**Гулнара ФАРМАНОВА,**

*Доктор философии по историческим наукам (PhD), доцент Ферганского государственного университета*

*E-mail: farmanova.gulya@gmail.com*

*На основе рецензии профессора ФерГУ Б. Усманов*

## СПОСОБЫ ОБНАРУЖЕНИЯ ПОСЕЛЕНИЙ ЗЕМЛЕДЕЛЬЧЕСКИХ ОБЩИН ЭПОХИ ЭНЕОЛИТА И РАННЕЙ БРОНЗЫ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ

Аннотация

Памятники эпохи энеолита и ранней бронзы на территории Центральной Азии обнаружены в небольшом количестве. В статье показаны способы обнаружения поселений эпохи энеолита и ранней бронзы на примере памятника в селении Беккишлак Пахтабадского района Андижанской области.

**Ключевые слова:** флора, фауна, цивилизация, Джейтун, яма, Сялк I, Хасуна, Джармо, неолит, энеолит, Капчигай, «Сохский амулет», Копетдаг.

## FARG‘ONA VODIYSIDAGI ENEOLIT VA ILK BRONZA DAVRI DEHQON JAMOALARINING MANZILGOHLARINI TOPISH USULLARI

Annotatsiya

Markaziy Osiyo hududlaridagi eneolit va ilk bronza davriga oid yodgorliklar juda kam miqdorda aniqlangan. Maqolada Andijon viloyatining Paxtaobod tumanida joylashgan Bekqishloqdan topilgan manzilgoh misolida aynan ushbu davrga oid manzilgohlar qaysi hududlarda uchrashi mumkinligi hamda ularni qayerlardan izlash zarurligi yoritib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** flora, fauna, sivilizatsiya, Joytun, o‘ra, Sialk I, Hasuna, Jarmo, neolit, eneolit, Qapchig‘ay, “So‘x toshumori”, Kopetdog‘, ilk bronza.

## METHODS FOR DETECTING THE SETTLEMENTS OF AGRICULTURAL COMMUNITIES OF THE ENEOLITH AND EARLY BRONZE EPOCH IN CENTRAL ASIA

Annotation

Eneolithic and Early Bronze Age sites in Central Asia have been found in small numbers. The article shows where and how to find monuments of this era, following the example of a monument in the village of Bekkishlak, Pakhtaabad district, Andijan region.

**Keywords:** Flora, fauna, civilization, Jeytun, pit, Sialk I, Khasuna, Jarmo, Neolithic, Eneolithic, Kapchigay, “amulet of Sokh”, Kopetdag.

**Введение.** В настоящее время по данной проблеме нет конкретных научных трудов. В учебниках по археологии и учебных пособиях для студентов-археологов не описываются методы обнаружения археологических памятников исходя из климатических условий Центральной Азии в рассматриваемый период. Ряд учебных пособий и учебников содержат информацию о методах строительства и архитектурных решениях жилищ древнейших земледельческих общин, однако нет информации о способах обнаружения археологических памятников [5; 13; 7; 12;].

**Обзор литературы и Методология.** Первые археологические исследования племен Средней Азии культуры энеолита и ранней бронзы были проведены Рафаэлем Пампелли, который работал в составе американской археологической экспедиции на памятнике Анау в Южном Туркменистане. Р. Пампелли, будучи ученым-геологом, хорошо понимал земные слои. В этой связи разделение стратиграфического шурфа, сделанного в начале XX века на слоях Анау-I–IV, не потеряло своего значения и по сей день. Наряду с результатами стратиграфического шурфа, раскопанного на памятнике Намазгохта в Южном Туркменистане, археологи постоянно обращаются к археологическим комплексам Анау-Намазгох для определения стратиграфии от неолита

до развитого бронзового века. С периода каменного века люди, исходя из природно-климатических условий, пытались заселить различные территории. С самого начала своей истории человечество стремилось освоить территорию, где были лучшие условия жизни. Поэтому образ жизни и методы хозяйствования древних людей развивались в зависимости от природных факторов и природно-географических условий – почва, водные ресурсы, флора и фауна, наличие или отсутствие полезных ископаемых и их местоположение [11].

Племена, попавшие в подобные условия, то есть на территории с благоприятными природно-климатическими условиями, богатыми земельно-водными ресурсами и полезными ископаемыми, сделали более уверенные шаги к ранним цивилизациям [14]. В связи с тем, что в недавнем прошлом у них были навыки «зарабатывать» на жизнь, собирая природные ресурсы или ведя хозяйство, процесс адаптации к новому хозяйству затянулся. Самое большое достижение ранних земледельческих общин заключалось в том, чтобы получить урожай и накормить всю общину. Теперь самым необходимым для них было собрать выращенный урожай и увеличить возможность его хранения как можно дольше. Поэтому ранние земледельческие общины Джейтунской культуры изучали методы эффективного использования почвы в условиях

Центральной Азии. Они отказались от временных жилищ, таких как камышовые хижины, землянки и полуземлянки, предпочитая жить в домах, построенных из глины, кирпича или пахсы, имевших одну комнату и окруженную небольшим двором [14]. Однако следует отметить, что существует ряд других факторов, способствовавших развитию ранних земледельческих общин эпохи неолита. В частности, в Южном Туркменистане возникла и развивалась древнейшая оседло-земледельческая культура эпохи неолита в Средней Азии – Джейтун. Артефакты и археологические находки, найденные в Джейтуне, также были широко распространены на территории Древнего Востока. Например, керамика, найденная в Джейтуне, идентична керамике, найденной в Сиалке I в Иране, Хасуне и Джармо в северном Ираке. Широко распространенные геометрические каменные серповые колодки эпохи неолита напоминают колодки, распространенные на Древнем Востоке. Общая форма серпов также очень похожа [15].

Вышеупомянутые памятники Хассуна, Джармо и Сиалк I (Иран) расположены на территории Древнего Востока и относятся к регионам, где распространилась ранняя земледельческая культура. Культура Джейтун, расположенная на территории Южного Туркменистана, также была хорошо связана с территориями Древнего Востока через территорию Ирана (особенно через юго-западный Иран). Таким образом, хотя Джейтунская культура территориально расположена далеко к северу от Двуречья, судя по широкому распространению ранней земледельческой культуры, социально-экономические и культурные связи между двумя регионами, по-видимому, были достаточно хорошо развиты.

Однако, если рассмотреть эволюцию древних культур в Центральной Азии, можно увидеть, насколько велика разница между неолитической Джейтунской культурой и культурами племен нижнего, среднего и верхнего Зерафшанского оазиса, а также невозможно понять, насколько велика эта разница. Дело в том, что по мере продвижения к северо-востоку от Джейтунской культуры уровень развития культуры будет постепенно снижаться. Почему возникла такая резкая разница? В условиях практически одинаковых природно-климатических условий, с одной стороны, развивалась первая земледельческая культура Джейтуна, а с другой стороны, очень простая система ведения хозяйства, основанная на охоте, собирательстве и рыболовстве, возникла и развивалась прямо на соседней территории. В некоторых комплексах этих территорий появляются ранние признаки скотоводства и даже земледелия [2].

Наличие благоприятных климатических условий, достаточных земельных и водных ресурсов, а также обилие солнечных дней было недостаточным для такой значительной разницы. Если бы только климатические и географические условия способствовали формированию древнейшей земледельческой культуры, такая географическая область развивалась бы уже в эпоху неолита в среднем и верхнем течении реки Зерафшан [8; 9; 10] или в значительных частях Ферганской долины. К сожалению, археологи в свое время отметили, что материальная культура большинства неолитических общин в этих районах оставалась даже на уровне мезолита [10].

Поэтому мы должны подчеркнуть не только наличие благоприятного геоэкономического пространства в возникновении Джейтунской культуры в Южном Туркменистане, но и то, что этнокультурное влияние древневосточных земледельческих общин проникло на соседние территории и охватило их [15].

#### Результаты и Дискуссия

На большей части Средней Азии существовали территории с благоприятными климатическими условиями для земледелия, но уровень жизни проживавших там племен оставался на уровне жизни охотников, рыболовов и собирателей. Это объяснялось тем, что в жизни этих племен не было прямых культурных связей с регионами Древнего Востока, то есть с населением более развитых земледельческих общин, хотя их влияние было минимальным. Племена, имевшие благоприятные природно-климатические условия, но располагавшиеся на некоторой окраине центральных частей Древнего Востока, также отставали в развитии. Очевидно, что и у них не хватало передового опыта. Население регионов, не имеющих благоприятные климатические условия и бедные полезными ископаемыми по сравнению с окружающими территориями, отставали от развития. Еще одним фактором, приведшим к этой ситуации, является отклонение древних дорог от трасс. Древние города Центральной Азии очень часто располагались вдоль торговых путей. Города, расположенные вдали от таких дорог, имеют очень низкий уровень развития, и степень их отсталости отчетливо видна в археологических материалах.

В древних обществах одной из основных причин отставания в экономическом развитии населения безводных, малоземельных, непригодных для земледелия территорий было то, что оно оказалось в стороне от крупных магистральных дорог. Все это видно из археологических материалов Центральной Азии. Племена, жившие в районах с неблагоприятными климатическими условиями, бедными полезными ископаемыми или вообще без них, находились в похожей ситуации.

В эпоху мезолита и неолита из-за обилия ручьев, стекающих с гор вокруг Ферганской долины, на равнинах Центральной Ферганы появилось множество озер, а вокруг них появились заросли кустарников и лесов, таких как пшат, камыш, тamarisk и ива. Кустарники вокруг этих озер были удобным местом для охоты и собирательства мезолитических и неолитических общин. Сами озера давали возможность членам племени заниматься рыболовством и хозяйством.

Горные районы Ферганской долины были богатыми месторождениями кремня, минералов, необходимых для изготовления каменных орудий первобытных племен. В качестве примера можно привести отходы изготовления каменных орудий у пещеры Капчигай у подножия Алайских гор, особенно многочисленные кремни и нуклеусы. Однако такие материальные источники не были найдены в Центральной Фергане, и найти их было практически невозможно. Поэтому, если ранее жизнь племен каменного века в Ферганской долине проходила преимущественно в верхних частях гор, то со второй половины мезолита кустарники, озера и их окрестности в центральной части долины стали важными объектами для охотничьих, собирательских и рыболовных племен. Племена Центральной Ферганы, которые «зарабатывали» на жизнь охотой, рыболовством и собирательством, имели очень хорошие условия для такого образа жизни, поэтому они с большим трудом принимали такую систему ведения хозяйства. Основной причиной относительно отсталого проникновения земледельческой культуры в этот регион является то, что природно-климатические условия Центральной Ферганы очень подходили для ведения охотничьего, собирательского и особенно рыболовного хозяйства общин эпохи неолита. Если бы 80 лет назад археолог, разбирающийся в антропогенном ландшафте, тщательно изучил природный и антропогенный ландшафт

Центральной Ферганы, он мог бы обнаружить временные поселения первобытных людей.

Верхняя часть стоянки эпохи мезолита и неолита была полностью выровнена в 60-70-х годах прошлого века в период освоения новых, дополнительных земель для расширения хлопковых полей. Теперь, если найти местоположение этих древних озер и провести шурф, можно наблюдать ежегодное изменение слоёв озера, поскольку они различаются по цвету зимних и летних отложений на дне водного источника.

В этом процессе началом антропогенных слоев считается период, когда начали появляться такие находки, как костяные удочки, каменные орудия труда, острокопечные копья, пригодные для ловли рыбы. Неудивительно, если из остатков самых верхних слоев озера появятся сведения о том, когда начали пересыхать воды горных рек, образующих озера Центральной Ферганы. Однако очевидно, что природно-климатические условия, сложившиеся в период мезолита, неолита и бронзы в Нижнезерафшанском оазисе, создали очень благоприятные условия для жизни людей каменного века, и жизнь здесь также служила средой обитания для племен бронзового века [3: с.86]. Процессы строительства у озера Заманбаба и прилегающих к нему притоков реки Зерафшан, поселений эпохи неолита, энеолита и бронзы должны были протекать параллельно (синхронно) с процессами строительства у озера в Центральной Фергане. В обоих регионах мы видим, что древние озера пересохли, опустынились и, наконец, древний антропогенный ландшафт был покрыт песчаными барханами. Если истощение озера в Центральной Фергане было вызвано использованием вод Соха, Шахимарданская и Исфайрамская для орошения земель в предгорных равнинах долины, то истощение озера в оазисе Заманбаба и его окрестностей было вызвано использованием вод реки Зерафшан земледельческими общинами, возникшими в верхней, средней и нижней частях.

В любом случае, стратиграфическое изучение озера в Центральной Фергане не дает нам никаких сведений о том, с какого периода первые земледельческие общины в Ферганской долине перешли к производственному способу хозяйствования. Изучая слои древних озера, мы не знаем, когда начался посев зерновых культур в районах долины. В целом, стратиграфическое изучение древних озера Центральной Азии, на наш взгляд, является одним из самых актуальных вопросов. До этого времени почти все археологи-фергановеды утверждали, что полная жизнь самых ранних земледельческих общин Ферганской долины непосредственно связана с чустской культурой [8;9;16]. По нашему мнению, сведения о периодах, предшествовавших чустской культуре, свидетельствуют о том, что два памятника материальной культуры сыграли большую роль в периодизации ранней земледельческой культуры. Один из них – «каменное животное», изображающее двух змей, атакующих друг друга, а другой – вышеупомянутый наскальный рисунок с изображением мужчин и волков. Изображение, подобное изображению на Сохском «таштумаре» можно сравнить с культурой, распространенной в древнем Эламе на территории юго-западного Ирана. Авторы датируют эту культуру культурами раннего бронзового века, но существует тот факт, что такие произведения, сделанные из камня на уровне художественных произведений и изображающие культуры своего времени – живые существа – должны были сохранять свое значение на протяжении долгого периода.

Мы уже упоминали, что вторую находку следует датировать бронзовым веком, но большинство авторов считают, что период широкого распространения

наскальных рисунков следует датировать неолитом. Следовательно, поскольку ни один из материалов, находящихся в нашем распоряжении, не является материалом, взятым из археологического памятника в точном стратиграфическом положении, мы можем лишь назвать его бронзовым периодом. В то же время, в каких именно регионах Ферганской долины и когда могла начаться первая земледельческая культура? По мнению Я.Г. Гулямова искусственное орошение возникает не только в Средней Азии, но и на Востоке в следующих физико-географических условиях: 1. в плодородных долинах, образованных аллювиальными отложениями горных рек; 2. в низовьях рек, текущих по равнине [4;1]. По нашему мнению, характер расположения памятников эпохи неолита, энеолита и ранней бронзы в Копетдаге и верховьях Зерафшанской долины весьма правдив в том, что они занимались земледелием методом заливного (лиманного) заводнения.

Если рассматривать каменные орудия, найденные в Джейтунской культуре в Южном Туркменистане и последующих памятниках эпохи энеолита, то в этих культурах встречаются в основном два каменных орудия, которые могли быть использованы в сельском хозяйстве. Одно из них – мотыга (позже использовалась и как плуг), другое – орудие, по форме напоминающее лопату, и при его изготовлении внешняя сторона была более отполирована. Следует особо отметить, что природные и климатические условия, природные богатства существовали в эпоху мезолита и в эпоху неолитических общин, и по мнению У.И. Исламова и В.И. Тимофеева, глубоко изучавших эпоху мезолита и неолита Ферганской долины, образ жизни общин эпохи неолита в центральных частях Ферганской долины, особенно уровень их развития, оставался на том же уровне, что и в эпоху мезолита [10]. Мы уверены, что общины эпохи неолита в Ферганской долине, подобно гиссарской культуре на юге и сагаганской культуре в Зерафшанской долине, должны были развиваться равномерно и переплетаться с культурами более поздних периодов. Поскольку у нас нет стратиграфических материалов для изучения этих периодов, мы также анализировали природно-географические условия, породившие древнюю земледельческую культуру в Ферганской долине, и рассматривали реки, собирающие селевые и дождевые воды, предполагая, что природно-климатические условия территорий от места расположения города Кочкарата в северо-восточной части долины до Арсланбоба должны быть подходящими землями для выращивания сельскохозяйственных культур и выживания древних земледельческих общин.

Эти реки, стекающие с севера на юг с гор и холмов к востоку от Майльсай, собирают воды горных рек Шаркиратма, Инчксай, Шайдансай, Учбулаксай, Говасай и Кызылсув, впадают в реку Карадарья, собирая воду реки Караунгир, которая течет с Арсланбоба на запад.

В ходе археологических исследований и поисков ранних земледельческих поселений в северо-восточной Фергане, в одном из домов села Бекмахалла Пахтабадского района Андижанской области был обнаружен каменный предмет, принадлежавший Саразмской культуре и известный как «камень весов», найденный на глубине 4,5 м от поверхности земли в шурфе размером 4х4, построенного для изучения этих слоев, который показал наличие около 3-метрового культурного слоя, в основном слоев золы. Во-первых, поскольку эти реки расположены в северной части долины, и имеют крутой рельеф относительно солнца, посевы, выращиваемые в этих районах, всегда имели солнечный свет и тепло. Во-вторых, поскольку ручьи

пересекали почвенные холмы, они были более насыщены дождевыми и селевыми водами, сбрасывая ил на посевные площади. Именно такую ситуацию в южном Туркменистане наблюдал Я.Г. Гулямов, о чем ранее отмечал Д.Д. Букинич.

#### Заключение

Из приведенных выше фактов можно сделать следующие выводы:

1. Метод заливного (лиманного) орошения, описанный Я.Г. Гулямовым в земледелии ранних земледельческих общин южных туркменских племен, использовался в северо-восточных регионах Центральной Азии (Зеравшанский оазис, Ташкент и Ферганская долина) в эпоху неолита и ранней бронзы.

2. Остатки культуры эпохи неолита и ранней бронзы Ферганской долины, Ташкентского оазиса,

Зеравшанского оазиса со временем оказались под отложениями более позднего периода (в зависимости от рельефа на глубине около 3–5 м).

3. Ранние земледельческие общины, мигрировавшие из Южного Туркменистана в Саразм, должны быть результатом ксеротермического климата XXV века до нашей эры (Гонуртепа) с ксеротермическим климатом 1200 лет назад. По нашему (и Р.Х. Сулейманова) мнению, такой климат был периодическим и повторялся каждые 1200–1300 лет.

4. Во время миграции саразмцы распространились не только в Зеравшанской, но и в Ферганской долине, Ташкентском оазисе и стали основой для формирования земледельческих общин в последующий период. Это основано на географическом распространении «весовых камней» саразмского типа, собранных в последние годы.

#### ЛИТЕРАТУРА

1. Букинич Д.Д. История первобытного орошаемого земледелия в Закаспийской области в связи с вопросом о происхождении земледелия и скотоводства // Хлопковое дело. – 1924. – № 3-4. – 110 с.
2. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы среднеазиатского междуречья. – Москва: Наука, 1981. – 176 с.
3. Гулямов Я.Г., Исламов У.И., Аскарлов А.А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зеравшана. – Ташкент: 1966. – 296 с.
4. Фуломов Я.Ф. Хоразмининг сугоришлиши тарихи. Қадимги замонлардан ҳозиргача. – Тошкент: Фан, 1959. – Б. 57-67.
5. Дикшит С.К. Введение в археологию. – Москва: Издательство иностранной литературы, 1960. – 506 с.
6. Добровольская М.В., Можайский А.Ю. Археология / Учебное пособие. – Москва: МПГУ, 2012. – 115 с.
7. Жўрақулов М.Ж. Ўрта Осиё ибтидоий археологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 214 б.
8. Заднепровский Ю.А. Древнеземледельческая культура Ферганы // МИА. – 1962. – № 118.
9. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии. Автореф. докт. дисс. – Москва, 1978.
10. Исламов У.И., Тимофеев В.И. Культура каменного века Центральной Ферганы. – Ташкент: Фан, 1986. – 304 с.
11. Лисицина Г.Н., Косточенко В.П. Почва как источник информации при изучении древнего земледелия. // Советская археология. – 1976, – № 1.
12. Массон В.М. Исторические реконструкции в археологии. – Фрунзе, 1990. – 93 с.
13. Мартынов А.И. Археология СССР. – Москва: Высшая школа, 1982. – 271 с.
14. Массон В.М. Поселение Джейтун. (Проблемы становления производящей экономики). – Ленинград, 1971. – 208 с.
15. Массон В.М. Средняя Азия и Древний Восток. – Москва, – Ленинград, 1964. – 468 с.
16. Матбабаев Б.Х. Локальные варианты чустской культуры Ферганы. Автореф. канд. дисс. – Ленинград: 1985.



UDK:94(575.1)

*Toyirjon MATYAQUBOV,*  
*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi*  
*E-mail: toyirjon88@gmail.com*

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti professori J.Yaxshilov taqrizi asosida*

## QUYI AMUDARYO HUDUDIDA KALTAMINOR MADANIYATI RIVOJLANISHGA DOIR BA'ZI BIR MULOHAZALAR

Аннотация

Ushbu maqolada Amudaryo hududidagi Kaltaminor madaniyati rivojlanishining ayrim jihatlari tadqiq qilinadi. Ma'lumki, Amudaryoning quyi oqimi mintaqasi qadimdan yirik irrigatsion tizimlar mavjud bo'lganligi va bu yerda turli davrlarda yuqori darajada rivojlangan madaniyat shakllanganligi bilan ajralib turadi. Qolaversa, ushbu hududda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida topilgan materiallar Kaltaminorning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini o'rganish imkonini beradi. Shuningdek, maqolaning asosiy maqsadi ushbu hududning qadimgi davrdan boshlab hozirgi kungacha saqlanib qolgan madaniy merosini tadqiq etish hamda uning bugungi kunda dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini ochib berishdir. Maqolada Xorazm vohasida Kaltaminor madaniyatining rivojlanishi ilk bosqichi tarixi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Tolstov S.P., Xolmatov N.U., Vinogradov A.V., Bryune F., Quyi Amudaryo, Xorazm, Sariqamish, Uzboy, Yonbashaqala, Jonbas-4, Qavat-5, Kunyak, Qavat-7, Qurg'oshin G.D, Kirk-qiz, Qurol-1, Baraktam.

## НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ ПО ПОВОДУ РАЗВИТИЯ КУЛЬТУРЫ КАЛЬТАМИНОРА В НИЖНЕМ АМУДАРЬЯСКОМ РЕГИОНЕ

Аннотация

В данной статье рассматриваются некоторые аспекты развития калтаминорской культуры в регионе Амударья. Известно, что нижнее течение Амударья издавна характеризовалось наличием крупных ирригационных систем и формированием здесь в разные периоды высокоразвитых культур. Кроме того, материалы, найденные в результате археологических исследований в этом районе, позволяют изучать социально-политическую, экономическую и культурную жизнь калтаминора. Главная цель статьи – изучение культурного наследия этого региона, сохранившегося с древних времен до наших дней, и выявление его вклада в развитие современной мировой цивилизации. В статье рассматривается история первого этапа развития калтаминорской культуры в Хорезмском оазисе.

**Ключевые слова:** Толстов С.П., Холматов Н.У., Виноградов А.В., Брюне Ф., Нижняя Амударья, Хорезм, Сарыкамьш, Узбой, Йонбашкала, Джонбас-4, Кават-5, Куньяк, Кават-7, Кургошин Г.Д., Кирк-киз, Куроли-1, Барактам.

## SOME CONSIDERATIONS ON THE DEVELOPMENT OF KALTAMINOR CULTURE IN THE LOWER AMU DARYA REGION

Annotation

This article examines some aspects of the development of the Kal'taminor culture in the Amu Darya region. It is known that the lower reaches of the Amu Darya have long been characterized by the presence of large irrigation systems and the formation of highly developed cultures here at different times. In addition, the materials found as a result of archaeological research in this area allow us to study the socio-political, economic and cultural life of Kal'taminor. The main goal of the article is to study the cultural heritage of this area, preserved from ancient times to the present day, and to reveal its contribution to the development of world civilization today. The article covers the history of the first stage of the development of the Kal'taminor culture in the Khorezm oasis.

**Keywords:** Tolstov S.P., Kholmatov N.U., Vinogradov A.V., Bryune F., Lower Amudarya, Khorezm, Sarikamish, Uzboy, Yonbashaqala, Jonbas-4, Qavat-5, Kunyak, Qavat-7, Kurgoshin G.D, Kirk-kiz, Kuroli-1, Baraktam.

**Kirish.** Quyi Amudaryo regionida geografik holati, antropogen landshafti, geomorfologiyasi, aholining joylashish xususiyatlari jihatidan bir-birini takror qilmaydigan holatlariga ega. Mazkur tarixiy ma'lumotlar Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasining avvalo Turtkul, Beruniy, va (hozir Ellikqala) tumanlarida axoli turar-joylarida olib borgan keng qamrovli arxeologik izlanishlar natijasida olingan ashyolar neolit davri jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarni yoritishga xizmat qiladi. Arxeologik adabiyotlarda Jonbas-4 manzilgohi Xorazm vohasida ilk etnik makon bo'lib, unda o'rnashgan neolit davri urug' jamoalari aholini soni 125 kishi qayd qilingan, u arifmetika tadqiqotchilar o'z asarlarida keng qo'llaniladi, ijodiy rivojlantirilmaydi. Jonbas-4 manzilgohi urug' jamoalari aholi son miqdori oshganligi sabab, Sariqamishbo'yi, Uzboy, Sirdaryo sharqiy tekisligi, Quyi Zarafshon va ustyurt

xududlarida neolit davri urug' jamoalari tomonidan yaratilgan madaniyat Kaltaminor madaniyati nomi bilan ma'lum. Ushbu maqolada Jonbas-4 manzilgohi urug' jamoalari aholi soni o'sishi munosabati bilan qo'shni xududlar sari migrasion jarayonini yoritish nazarga olingan.

Kaltaminor madaniyati – O'zbekistonda neolit davriga oid ilk topilgan arxeologik madaniyat (miloddan avvalgi 7-3-ming yillik). Kaltaminor ko'li yonidan topilgan. 1939-40 va 1945-yillar Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Kaltaminor madaniyati Amudaryoning qadimiy Oqchadaryo deltasi, Qizilqum, Yuqori O'zboy, Mohondaryo, Orolning shimoliy-sharqiy bo'ylarida, Qozog'iston va sharqiy Kaspiy, ya'ni Balxan va Manqishloq hududlarigacha tarqalgan. Albatta, bu juda katta hududda yagona bir oilaga oid odamlar yashagan emas, bu yerlarda bir-biriga yaqin bo'lgan qabilalar yashagan deydish to'g'ri bo'ladi. Yaqinlik,

asosan, tosh qurollarda yaxshi ko'rinadi. Tosh qurollarni, yasash texnikasi va uning tiplarida o'xshashlik farqlar esa sopol idishlarda, ya'ni uning bezaklarida – bezak buyumlarda, taqinchoqlarda ko'rinadi. Asosiy qurollarining o'xshashligi va farqlarini saqlab qolgan qurollar – shu vohalarda bir-biriga o'xshash, bir xil turmush tarziga ega bo'lgan urug'lar bo'lganligini ko'rsatadi. Bular Oqchadaryo, quyi Zarafshon, Lavlakon, yuqori O'zboy, Ustyurt guruhlaridan iborat. Shu hududlarda yashagan neolit odamlari 7-3-ming yillikda yashab ovchilik, temirchilik va baliqchilik bilan tirikchilik o'tkazishgan. Ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan bog'liq qurollarni ishlash texnikasi neolit davrida eng cho'qqiga chiqqan davr hisoblanadi. bog'liqlar, kesuvchi, teshuvchi qurollar, o'q-yoylar, kamon o'qlari va shunga o'xshash qurollarni yasash eng takomillashgan davr hisoblanadi. Mikrolit qurollarining paydo bo'lishi, suyakdan va yog'ochdan yana ham takomillashgan qurollar yasash imkoniyatini bergan. Arxeologlar, asosan, shu mikrolitlar va o'qyoyni yasalishiga asoslanib neolit davrini davrlarga ajratganlar. Kaltaminor madaniyatini ham 3 davrga bo'lib o'rganilgan. Kaltaminor madaniyatining ilk davri 7-5 ming yillikka to'g'ri keladi. Bu davrga xos yodgorliklar Zarafshonning quyi oqimida, Qizilqumning Lavlakon va Karakata, janubiy sharqiy Ustyurtida topilgan va o'rganilgan. Kaltaminor madaniyatining o'rta davri 6-5-ming yillikka to'g'ri keladi. Bu davrga oid manzilgohlar butun Qizilqum va unga yaqin bo'lgan hududlardan topilgan. Kaltaminor madaniyatining oxirgi davri 4-3 ming yillikka to'g'ri keladi. Bu davrga oid yodgorliklarga Qozog'iston hududlaridagi manzilgohlar kiradi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** XX asr 30 yil o'rtalaridan Xorazm ekspeditsiyasi tarkibida tumani xududida joylashgan Yonboshqala balandligida o'troq aholi hunarmandlari tomonidan qad ko'tarilgan Yonboshqala antik davr yodgorligi yaqinida yer sathiga qurilgan Yonboshqala-4 manzilgohida olib borilgan qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar mil.avv.IV-III ming yillikka oid bo'lib, "Kaltaminor madaniyati" degan etno toponomikani adabiyotlar sahifasiga joylashtirilgan. S.P.Tolstov ilk monografiyasida Yonbosh-4 urug' jamoalari olib borgan xo'jaligini "Kaltaminor madaniyati" joylashtirgan. Tadqiqotchi Kaltaminor madaniyati ilk bosqichi IV-III ming yillikka o'ldirgini qayd qilgan. Tadqiqotchining keng jamoatchilik ommaga mo'ljallangan nashrida Jonbas-4 manzilgohi makoni madaniy qatlami olingan ashyolar namunalarini berilgan, lekin tarixiy davrlarga bo'lingan emas. Tadqiqotchi XX asr 60 yili boshida chop qilingan nashrida Kaltaminor madaniyati to'g'risida fikr-mulohazalariga ko'ra, ikki tarixiy davrga bo'lingan, ya'ni birinchi tarixiy davri mil.avv.IV ming yillik oxiri - III ming yillik birinchi yarmi, ikkinchisi esa III ming yillik ikkinchi yarmi - II ming yillik boshlari qilib belgilangan. Tadqiqotchilar xamkorligida nashr qilingan monografiyada Kaltaminor madaniyati ilk bosqich IV ming yillik oxiri - III ming yillik boshi, ikkinchisi esa, III ming yillik ikkinchi yarmi - II ming yillik boshi" qilib belgilangan. Tadqiqotlarda qayd qilingan Kaltaminor madaniyati davrlashtirilishi munozaraga aylanishi mumkin, lekin tadqiqotchilar tomonida qabul qilingan. Bizning nazarimizcha Jonbas-4 manzilgohida dastlabki qazish ishlari vaqtida manzilgoh ichki qismida shurf ishlari olib borilgan emas, chaylaning ilk qurilishi qadimiy bo'lsa kerak. Shu ma'noda N.U.Xolmatovning fikri diqqatga sazovor. 2008 yilda chop qilingan N.U.Xolmatov monografiyasida Kaltaminor madaniyati davrlashtirilishi quyidagicha izox qilgan. Chunonchi-neolit davriga mansub Jonbas-4 manzilgohida o'rnatilgan urug' jamoasi madaniyati mil.avv. V ming yillik oxiri – IV ming yillik o'rtalari (o'rta neolit davri), ikkinchisi so'nggi neolit davriga oidligi mil.avv.IV ming yillik ikkinchi yarmi- III ming yillik qilib belgilangan.

Xorazm vohasi, unga ulanib ketgan Sariqamishbuyi, Uzboy, Sirdaryo sharqiy tekisligi, Quyi va o'rta Zarafshon hududlarida Xorazm ekspeditsiyasi va Ya.G'.G'ulomov rahbarligida Mahondaryo va Gujajli irmoqlari tizimida aholi turar-joylari to'g'risida ma'lumotlar keng.A.V.Vinogradov ilk monografiyasida Oqchadaryo xavzasi Sho'raxon va Sulton Uvays tog'i o'rtasida arxeologik yodgorliklarni quyidagi guruhlarga ajratgan:

Ilk guruh-Janbos-4 (quyi qatlami) Jonbas-31, Qavat-5, kunyak-1.

O'rta gruppqa Qavat-7, Jonbas-32, Tadjiqazgan 6 a, Qurgashin G i D, Dingeldji-6, Kirk-kiz-1 Djanbas-4 yuqori qatlam.

So'nggi gruppqa Tadjikazgan-6. Jonbas-5, Tadjikazgan-8, Djanbas-4, Dingeldji-6, Qurali-1, Baraktan-10.

A.V.Vinogradov asarida Janbos-4 manzilgohi urug' jamoalari turar-joylarini ilk, neolit davriga ajratgan, ya'ni

1-Jonbas-4, Qavat-5, Kunyak, manzilgohlari jalb qilingan. Tadqiqotchi F.Bryune maqolasida Kaltaminor madaniyati birinchi bosqichiga Quyi Zarafshonda (Uchashi-131), manzilgohini jalb qilib, ilk bosqichni mil.avv.VII-VI ming yillik bilan belgilagan.

Tadqiqot metodologiyasi bo'yicha quyidagilar olindi:

Ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchilik, nazariy-qiyosiy tahlil, bahs, munozara, umumlashtirish, geografiya, etnografiya, etnodemografiya ma'lumotlardan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** O'tgan asr arxeologik adabiyotlar va XXI asr nashrlarda qayd qilingan tarixiy ma'lumotlarni asos qilib olib, Tolstov tomonidan Kaltaminor sug'orilish tizimida joylashgan Jonbas-4 manzilgohidan olingan ashyolar Kaltaminor madaniyatini ilmiy jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi, tadqiqotchilar esa ushbu madaniyatni asarlarida doimo qo'llab kelmoqdalar, xolis fikr-mulohazani qayd qilmaydilar.

Tadqiqotchilar asarlarida Jonbas-4 manzilgohi urug' jamoalari tarix taqozasiga ko'ra, qo'shni hududlarga, yani Sirdaryo sharqiy tekisligi, janubiy-g'arbiy Qozog'iston, Ural tog'i janubi, Volga-Don oralig'i hududlari yashagan aholi madaniyati Kaltaminor madaniyatiga oidligi tahlil qilingan. Yuqorida qayd qilingan tahlil asosida quyidagi natijalarni izoh qilish mumkin: Natijalar shuki, Oqchadaryo havzasi Yonboshqala balandligi yon qismiga yog'och ustunli konusimon shaklda qurilgan Jonbas-4 manzilgohi urug' jamoalari "Ona" rahnamoligida Sariqamishbuyi, Uzboy, Tuyamuyin, Sirdaryo sharqiy tekisligida o'rnatilgan neolit davri aholisi hamda Quyi va o'rta Zarafshon, Qozog'iston janubi-g'arbiy Ural tog'i janubiy hududlarida istiqomat qilgan aholi bilan iqtisodiy-madaniy aloqalarni olib borgan. Shu munosabat bilan yuqorida qayd qilingan geografik kenglik "Kaltaminor madaniyati" yoyilgan hudud bo'lgan.

Amudaryo hududi Markaziy Osiyodagi eng qadimiy madaniy markazlardan biri hisoblanadi. Uning quyi oqimida joylashgan Kaltaminor madaniyati alohida e'tiborga loyiqdir. Bu hududda topilgan arxeologik topilmalar shuni ko'rsatadiki, ushbu hududdagi aholi juda qadim zamonlardan buyon dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanib kelgan.

Kaltaminorda ilk bor o'rta asrlardan boshlab aholi punktlarining paydo bo'lishi qayd etilgan. O'sha davrda hududda sug'orilish tizimi yaxshi rivojlangan edi. Ushbu irrigatsion tarmoqlarning mavjudligi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay sharoit yaratgan. Shu boisdan ham Amudaryo vodiysining quyi qismida katta shahar va qishloqlar tashkil topgan.

Qadimgi davrlardagi moddiy madaniyat namunalarini orasida turar-joy binolari, hunarmandchilik buyumlari, uy-ro'zg'or buyumlari kabi buyumlar diqqatga sazovor. Bular orasida ayniqsa mashhur bo'lgan obidalaridan biri bu Qoratepa hisoblanadi. Ushbu joyda olib borilgan qazishmalar davomida

turli davrlardagi binolar qoldiqlari, kulolchilik mahsulotlari, metall buyumlar va boshqa narsalar topilgan.

Kaltaminordagi jamiyat o'zining murakkab tuzilishiga ega bo'lgan. Shahar aholisi asosan savdo-sotiq, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Qishloq aholisidan farqli ravishda shaharliklar ko'proq rivojlangan iqtisodiyotni yuritishgan. Bundan tashqari, mazkur hududda turli diniy e'tiqodlarga mansub odamlar yashaganligi ma'lum. Masalan, buddizm va zardushtiylik dinlariga e'tibor qaratilgan.

Amudaryo havzasining quyi qismidagi Kaltaminor madaniyati asrlar davomida rivojlanib kelgan. Mazkur hududning boy tarixi va madaniy merosi bugungi kunda ham ahamiyat kasb etadi. Chunki u nafaqat mahalliy xalqning hayoti haqida balki butun jahon sivilizatsiyasining rivojlanishi jarayonlarida muhim rol o'ynaganligini anglatadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida zikr qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

-Xorazm vohasi, unga ulanib ketgan hududlar bir-biriga ulanib ketgan.

-Amudaryo, Zarafshon va Sirdaryolar taraqqiyoti natijasida keng tekislik aholi o'rinishib, etnik jarayonni olib borishiga qulay bo'lgan.

-Mil.avv.V ming yillik oxiri- IV-III ming yillikda Jonbas-4 manzilgohida o'rinishgan urug' jamoalari Quyi va o'rta Zarafshon, Volgabo'yi va Janubiy Ural tog'i hududlarida o'rinishgan aholi umum geografik kenglikda, umum muhitda yashab xo'jalik-madaniy aloqalarni olib borganlar.

Takliflar quyidagicha izohlandi:

1.Janubiy Orolbo'yi geografik holati, aholining joylashish xususiyatlarni keng ma'noda o'rganish;

2.Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari tarixiy o'rni, hozirgi holatini tahlil qilish;

3.Hozirgi zamonda Xorazm va qo'shni hududlarda aholi o'rtasida iqtisodiy-madaniy aloqalarni yuqori bosqichda olib borish imkoniyatini yoritish.

#### ADABIYOTLAR

1. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm-M.MGU 1948.
2. Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy sivilizatsii-M-L, Nauka, 1948.
3. Tolstov S.P. Po drevnim deltam Oksa i Yaksarta-M, IVL RAN, Nauka, 1962.
4. Nizovya Amudari Sarikamish Uzboy. Istoriya formirovaniya i zaseleniya-M.:Nauka, 1960. Vip-3.
5. Xolmatov N.U. O'zbekistonning neolit davri jamoalarining moddiy madaniyati-Toshkent,:Fan, 2008.
6. VinogradovA.V. Drevnie oxotniki i ribolovi sredneazitskogo mejdurechya-M:Nauka, 1981. T.XIII.
7. Vinogradova A.V. Neoliticheskie pamyatniki Xorezma M. Nauka. 1968. Vip-8.
8. Bryune F. O novom issledovanii neoliticheskoy Keltminarskoy kulturi (Uzbekistan) //Arxeologiya i istoriya Sentralnoy Azii v trudax Fransuzskix uchenix-Samarkand. 2014-T.1.



UO'K: 069(091)(575.152-25)

*Ulug'bek OLIMOV,*  
*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi*  
*"Qatag'on qurbonlari xotirasi" davlat muzeyi mustaqil tadqiqotchisi*  
<https://orcid.org/0009-0001-0207-480X>

*SHDPI dotsenti, t.f.d N.Xushvaqov taqrizi asosida*

## SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY-QO'RIQXONASI TASHKIL ETILISHINING HUQUQIY ASOSLARI VA SHAKLANISHI TARIXI

Аннотация

Mazkur maqola Shahrisabz tarixiy markazida vujudga kelgan muzey-qo'riqxonaning shakllanishiga oid huquqiy normalar, ijtimoiy-iqtisodiy muhit va amaliy jarayonlari tarixi aks ettiriladi. Shuningdek, malakatda madaniy meros obyektlarini saqlash va foydalanishga oid bo'lgan ba'zi muammoli masalalar xususan umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kirgan tarixiy shaxarlarni asrashda boshqaruv rajasida uchrayotgan dolzarb masalalar haqida so'z yritiladi. Mavzuni yoritishda avvalo hududning imkoniyatlarini hisobga olish va manbalarni tarixiy xronologik usulda tadqiq qilindi.

**Kalit so'zlar:** Muzey-qo'riqxonasi, madaniy meros, huquqiy norma, rekonstruksiya, nomoddiy madaniy meros, an'anaviy hovli.

## ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ИСТОРИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ШАХРИСАБЗСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ-ЗАПОВЕДНИКА

Аннотация

В данной статье отражена история правовых норм, социально-экономической среды и практических процессов, связанных с формированием музея-заповедника, возникшего в историческом центре Шахрисабза. Также рассматриваются некоторые проблемные вопросы, касающиеся охраны и использования объектов культурного наследия в стране, в частности актуальные проблемы в системе управления при сохранении исторических городов, включённых в Список всемирного культурного наследия.

При раскрытии темы в первую очередь были учтены возможности региона и проведено исследование источников историко-хронологическим методом. В результате были собраны научные и правовые источники, относящиеся к формированию музея-заповедника, а также определены его сегодняшняя роль в развитии отрасли и перспективные планы.

**Ключевые слова:** музей-заповедник, культурное наследие, правовая норма, реконструкция, нематериальное культурное наследие, традиционный дом.

## THE LEGAL FOUNDATIONS AND HISTORICAL DEVELOPMENT OF THE SHAHRISABZ STATE MUSEUM-RESERVE

Annotation

This article reflects the history of the legal regulations, socio-economic environment, and practical processes related to the formation of the museum-reserve that emerged in the historical center of Shahrisabz. It also discusses certain problematic issues concerning the preservation and use of cultural heritage sites in the country, particularly the pressing challenges in the management system when safeguarding historic cities included in the World Cultural Heritage List.

In covering the topic, the study first takes into account the region's potential and examines the sources using the historical-chronological method. As a result, scientific and legal sources related to the formation of the museum-reserve were collected, and its current role in the development of the field as well as future prospects were identified.

**Keywords:** museum-reserve, cultural heritage, legal norm, reconstruction, intangible cultural heritage, maqom, traditional house.

**Kirish.** O'zbekiston muzeylar mamlakati hisoblanadi. Unda tabiiy, tarixiy va madaniy meros uyg'un holda rivojlangan. Shu o'rinda Shahrisabz (forsiy tilidan tarjimasi – "yashil shahar") ham bu fikrga yorqin misol bo'la oladi.

Ma'naviy, ma'rifiy va ilmiy tashkilot hisoblanadigan muzeylar nafaqat O'zbekiston xalqini, balki bashariyatni ezgulikka da'vat etib, insoniyatni barkamollikka yetaklaydigan muassasadir. Jamiyatning madaniy meros obyektlariga bo'lgan munosabati muzeylarning samarali faoliyati bilan chamarchars bog'liqdir. O'zbekiston xalqining shonli moddiy madaniyati, nomoddiy madaniyati tarixi shuningdek muzeyshunosligi ijtimoiy gumanitar fanlar tarkibiga kirib, soha Yangi O'zbekiston g'oyasi ostida taraqqiyotning uchinchi renessans rivojlanish bo'sag'asida turibdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Ilmiy adabiyotlar: Tadqiqotda E. Rtveladze va A. Sagdullaevlarning "Pamyatniki

Minuvshix Vekov" monografiyasi tadqiq etilib, unda keltirilgan "Drevnosti Keshu"[1] paragrafida Shahrisabzda joylashgan ko'plab tarixiy yodgorliklar, ularning xranalogiyasi, arxeologiyasiga oid ko'plab manbalar uchraydi.

Shuningdek X.T.Sultonovning "K istori formirovaniya arxitekturmix ansambley Shaxrisabza XIV-XV v.v" [2] nomli tadqiqot ishida esa Shahrisabz shahridagi tarixiy yodgorliklarni ochiq osmon ostidagi muzey-qo'riqxonaga aylantirish borasidagi dastlabki fikrlar uchraydi. Shuningdek muzey-qo'riqxonasi obyektlari sifatida Dorut tilovat, Dorus saodat, Oqsaroy tarixiy majmualari arxitektura va arxeologik jihatdan tadqiq qilinadi.

Huquqiy manbalar: Hududning umumjahon ahamiyatiga ega ekanligini aksi o'laroq "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish bo'yicha" Konvensiya matereallari ham tadqiq qilinib, unda tarixiy hududni YUNESKO e'tirof etgan "Umumjahon madaniy

merosi" ro'yxatiga kiritilish asoslari va undan chiqarilish bilan bog'liq holatlar o'rganildi.

Bundan tashqari Respublika Prezidentining muzey qo'riqxonalar faoliyatiga oid farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar mahkamasining qarorlari, qonun va qonunosti hujjatlari tahlil qilinib muzey qo'riqxonalar shakllanishining tadrijiy rivojlanishi jarayoni gavalantirildi.

Arxiv hujjatlari: Samaqqand arxeologiya instituti joriy arxiv matereallaridan "Otchyot Shaxrisabzskogo otryada o rabotax po arxeologicheskomu nadzoru na kompleksax Ak-Saray i Dorus-Siadat. Samarkand, 1996. (Arxiv Instituta arxeologii AN RUz). Raimkulov A.A., Suleymanov R.X., Xushvaqov N.O. i dr" arxeologik hisobot xujjatlari ham tadqiq etilib, Shahrisabz hududida olib borilgan ekspeditsiyalardan topilgan arxeologik matereallar Shahrisabz muzey-qo'riqxonasi fondini boyitishdagi manbalardan biri bo'lganligi kuzatildi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shahrisabz shahrida muzey-qo'riqxonalar tashkil etilishi jarayoni qanday huquqiy asoslarda kechdi degan asosli savol mavjud. Muammoni tahlil qilish uchun avvalo hududning imkoniyatlarini hisobga olish va tarixiy xronologik usulda tadqiq qilish lozim. Muassasaning huquqiy maqomi, vazifalari, obyektlari haqida manbalar to'planishi lozim. Bu manbalarni tarixiy geneologik usul orqali tahlil qilib ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Mustaqillikning ilk yillaridanoq Shahrisabz hududida muzey qo'riqxonalar tashkil qilish g'oyasi shakllana boshlagani madaniy merosga hukumat tomonidan berilayotgan ijobiy o'zgarishlarning yaqqol ifodasidir. Xususan 1994-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida" 630-sonli qarori e'lon qilinib, unda 1995-2000 yillarga amalga oshiriladigan ishlar doirasida Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasini tashkil qilish masalasi ham qo'yilgandi. Muzey qo'riqxonalar tashkil qilish tadqiqotchilar orasida xususan, 1990-yillarda Shahrisabz obidalarini tadqiq qilgan X.T.Sultonov faoliyatining amaliy natijalarida "ochiq osmon ostidagi tarixiy-arxitekturaviy muzey qo'riqxonalar" sifatida e'tibor qaratilgan masalalar sirasiga kirgandi[3].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-sonli farmonida "O'zbekiston 2030" strategiyasi 1-ilovasi 42-punktida madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish masalasi" aniq qilib belgilab berildi[4]. Moddiy va nomoddiy madaniy merosni asrash, muzeylar ishini muvofiqlashtirish, xalqaro turizm tizimini takomillashtirish masalasi YUNESKOning "Umumjahon madaniy va tabiiy merosini asrash to'g'risidagi konvensiyasiga" asoslanishi ham tanlangan yo'nalishdagi tadqiqotlar xalqaro ahamiyatida ustuvor sanaladi[5]. O'zbekistonning qadimiy va boy tarixi, jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissi, madaniy merosni asrash hamda turizmning turli yo'nalishlarini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero "Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir" [6].

Shahrisabz shahrining mislsiz qadriyat sifatida e'tirof etilgan tarixiy hududida olib borilgan obodonlashtirish, ko'kalamlashtirish, kommunikatsiya tarmoqlarini o'tkazish, ta'mirlash va tiklash ishlarini 2014-2016 yillarda IKOMOS va YUNESKOning "Umumjahon merosi qo'mitasi ekspertlari" "Shahrisabzni tarixiy me'morchilik obyektlari shahar tarixiy muhitidan alohida bo'lib qolgani, an'anaviy uy-joylar va mahallalarning ko'chirilishi oqibatida madaniy turmush jarayonining buzulishi shaharga zarar yetkazilgan, natijada umuminsoniyat merosi sifatida qadrlanib kelinayotgan shaharozlikning an'anaviy shakliga zarar yetkazilganligi qayd etilgan[7]. Shu munosabat bilan YUNESKO "Umumjahon

madaniy merosi ro'yxatiga kirgan obyektlarning ekspluatatsiya qilish bo'yicha yo'riqnomasi"ning 192-moddasiga asosan[8] Shahrisabz shahrini ro'yxatdan chiqarish masalasi o'rtaga qo'yilgan. Tarixiy jarayonlarga nazar solsak 2016-yil YUNESKOning Istanbul shahri (Turkiya) da bo'lib o'tgan 40-sessiyasida Shahrisabz shahrining tarixiy hududidagi "umumjahon madaniy merosi xavf ostidagi hudud" (List of World Heritage in Danger) qizil ro'yxatiga kiritilganligini kuzatamiz.

Yuqoridagi murakkab muhit va xalqaro holatni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrda PQ-4068-sonli "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori[9], shuningdek ushbu qarorga asosan, Vazirlar Mahkamasining "Shahrisabz shahrining tarixiy hududida davlat muzey qo'riqxonasi tashkil etish bo'yicha" qarori[10] qabul qilindi.

Mazkur qarorlarga ko'ra, "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi tashkil etildi. Unga asosan, "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi Qashqadaryo viloyati Amir Temur nomidagi Shahrisabz shahar moddiy madaniyat tarixi muzeyi asosida tashkil qilindi[11]. Ilk tashkil etilgan yillarda "Shahrisabz" davlat muzey-qo'riqxonasi O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi huzuridagi Madaniy meros agentligi tizimidagi davlat muassasalaridan biri sifatida faoliyat olib borgan.


Bundan tashqari keyingi qonun va qonunosti hujjatlarida muzey-qo'riqxonalar moliyaviy faoliyati ham belgilanib madaniy meros obyektlarini ijaraga berishdan topgan mablag'larini 90% qismini, bilet sotishdan topadigan mablag'larining 50% qismini Madaniy meros agentligining maxsus jamg'armasiga o'tqazish tartibi joriy qilingan. Muzey-qo'riqxonada saqlanib qolgan bilet sotishdan to'plangan 50% mablag'ning 25% qismi moddiy texnik ba'zani rivojlantirishga, qolgan 25% qismi xodimlarni moddiy rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltirish mamlakat qonunchiligida belgilangan.

2015-2016 yillarda Shahrisabz shahrining markaziy qismini kompleks rivojlantirish asosida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Jumladan: bir qancha mahallalar o'z o'rnidan ko'chirilgan. Shu jumladan 650 ga yaqin mahalliy uylar ko'chirilgan. Shu asosda markaziy maydonda keng xiyobon shakllantirilgan. Shahar markazi 1.5 m. gacha bo'lgan tuproq qatlami maxsus texnikalar yordamida sidirib olingan va alleya relyefi tekis holatga keltirilgan. Sidirib olingan mazkur madaniy qatlam tuproqlarining ma'lum qismi shahar qal'a devorining sharqiy hududi (Kunchiqar darvoza)da yo'q bo'lib ketgan devorni suniy tepalik holatida qayta tiklash maqsadida shu joyga keltirilgan. Ko'kalaklashtirish va obodonlashtirish jarayonida kuzatishlar olib borgan muzey va madaniy meros inspeksiyasi mutaxassislari (N.Xushvaqov hamda [R.Mansurov]) Oqsaroy majmuasini muhofaza xududi va bufer xududlarini saqlab qolishda katta xizmat ko'rsatganini qayd etish joiz.

Tarixiy madaniy hududlarni muzeilashtirishda tabiiy, tarixiy, madaniy muhit bilan birgalikda maxsus ekspozitsion hududlarni umumlashtirgan xolda ko'rgazma tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi "Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 119-son qarorining 12-ilovasida[12] Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasining qo'riqlanadigan tegralari chegarasi (qarang 1-rasm)ham keltirib o'tilgan bo'lib uning hududi ko'k chiziq bilan ajratilgan. Tarkibiga markazda (qizil chiziq) asosan atrofdagi Namozgoh, Navro'z, O'rda, Zingiron, Qoziguzar, Qo'shhovuz, Kulollik, Qushxona, qo'riqlanadigan chegara hudud (ko'k hudud) esa Namozgoh,

Xabarlik va Tiklanish mahallasining bir qismini o'z ichiga olgan.  
1-rasm

Shahrisabz tarixiy markazining muhofaza chegarasi



Bugungi kunga kelib muzey-qo'riqxonada 2 ta muzey: Chubin madrasasi binosida va Maqom (filial) muzeyi; 5 ta filial: Dorut tilovat, Dorus saodat, Oqsaroy majmualari, Tarixiy masjidlar, Arxeologik obyektlar filiallari faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shulardan Chubin madrasasi binosida 2018-yildan buyon "Sohibqiron Amir Temur hayoti va faoliyati", shuningdek "Kesh tarixi va madaniyati" ekspozitsiyalari faoliyat ko'rsatib kelmoqda[13]. Maqom muzeyida esa 2019-yildan buyon "Milliy maqom san'ati" ko'rgazmasi namoyishi yo'lga qo'yilgan. Umuman muzey qo'riqxonada fondida to'plangan 36500 ga yaqin ashyolarning interpretatsiyasi yillik dasturlarga asosan shu turdagi ekspozitsiyalar orqali namoyish qilib kelinmoqda. Mazkur hududni asrash targ'ibot faoliyatida ishtirok etuvchi muzey xodimlari soni ilgari 40 ga yaqin bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib muzey-qo'riqxonada xodimlari soni 110 dan ortiqni tashkil qilmoqda.

Mustaqillik yillarida mamlakat iqtisodini rivojlantirishda turizm sohasidagi davlat siyosati yo'nalishi turistik salohiyatni rivojlantirishdagi "Qashqadaryo tajribasi" shakllanib bormoqda. Shahrisabzdagi madaniy turizm salohiyatini oshirish, voha ma'naviy hayotida ham muzey-qo'riqxonada munosib o'rin egallab kelmoqda.

O'zbekistonda xalqaro va ichki turizmga qiziqish ortib borayotganini hisobga olib, madaniy meros obyektlarini boshqarish mexanizmini takomillashtirish, tarixiy arxitektura yodgorliklaridan foydalanishning maqbul usullarini, ularni moslashtirishning uyg'unligini topish zaruriyati vujudga kelmoqda. Me'moriy yodgorliklarda zamonaviy ehtiyojlar uchun foydalanish, estetik zavq olish va maishiy xizmat ko'rsatish kabi yangi funksiyalarni joriy etish usullarini tadqiq etish zarur bo'lib bormoqda.

Tadqiqotlar davomida bugungi XXI asr xalqaro integrallashuv muhiti muzey-qo'riqxonada faoliyatida qay darjada aks etdi degan masalani vujudga keltiradi. Shuni

takidlash kerakki muzeylar butun jahonda jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, tarixiy muhitini ko'rsatadigan maskan hisoblanib, Shahrisabz muzey-qo'riqxonasi ham shular jumlasidandir.

Tadqiqot kuzatuvlari davomida ma'lum bo'ldiki muzey-qo'riqxonada YUNESKONing umumjahon madaniy va nomoddiy merosiga kiritilgan "Shahrisabz shahri tarixiy markazi" hamda milliy nomoddiy madaniy merosini dunyo ahliga namoyish qilishda o'z hissasini qo'shib kelayotgan asosiy muassasalardan biridir. O'zining tarixiy tajribalari asosida hududdagi tarixiy obyektlar, nomoddiy madaniy meros elementlariga oid matereallar bilan muzey fondini boyitib borishda keng o'rinda e'tibor qaratib kelmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda tarixiy-genealogik uslubdagi tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki – muzey-qo'riqxonaning turli shakllarda namoyon bo'luvchi faoliyati mamlakat moddiy - omoddiy merosi hamda arxitektura merosini keng jamoatchilikka tadbiiq va tashviq etish rolini samarali bajarib kelayotganligini ko'rsatmoqda;

Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasining sayohatlarni tashkil etish ya'ni madaniy urizmga oid faoliyatini turizmning bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashuv jarayonida deya ta'riflash mumkin. Bu borada zamonaviy turizm bozoriga, moslashtirish va kreativ metodlarini tadqiq qilish muzey faoliyati perspektivasida yaxshi samara berayotganligi kuztilmoqda;

Tarixiy hududlarni muzeylashtirishda moddiy va nomoddiy madaniy meros ekspozitsion hududlarini madaniy turizmga moslashtirishda maxusus kontsepsiya va menejment plan ishlab chiqish sohaning istiqboliga xizmat qiladi. Bu borada muzey xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish, binobarin Madaniy meros ilmiy tadqiqot instituti, Arxeologiya instituti, Ilmiy markaz darajasidagi muassasalar bilan hamkorlikda faoliyat yuritish maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Э. Ртвеладзе, А. Сагдуллаев. Памятники Минувших веков. "Ўзбекистон", Ташкент: 1986. 51-78 стр.
2. Султонов Х.Т. К истории формирования архитектурных ансамблей Шахрисабза XIV-XV в.в. Автореферат диссертация на соис. уч. степ. кан. ист. наук. – Самарканд, 1990. 1-17 стр.
3. Султонов Х.Т. К истории формирования архитектурных ансамблей Шахрисабза XIV-XV в.в. Автореферат диссертация на соис. уч. степ. кан. ист. наук. – Самарканд, 1990. - С.: 2.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023-yildagi "O'zbekiston 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/6600413>.
5. "Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish bo'yicha" Konvensiya. <https://lex.uz/docs/2749728>. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 22.12.1995 yildagi "1972 yilda imzolangan Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish bo'yicha Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida" gi 182-I-son qarori. <https://www.lex.uz/uz/docs/2678355>.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. "Ўзбекистон", 1-жилд. – Тошкент: 2017. Б-29.
7. UNESCO. Report of the Decisions adopted during the 40th session of the World Heritage Committee. Istanbul. 2016. – В 118.

8. Operational Guidelines for the Implementation of the World Heritage Convention. Intergovernmental committee for the protection of the world cultural and natural heritage. - C.: 62.  
[https://whc.unesco.org/en/guidelines/?utm\\_source=chatgpt.com](https://whc.unesco.org/en/guidelines/?utm_source=chatgpt.com)
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdaqi "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4068-sonli qarori. <https://lex.uz/ru/docs/-4113465?ONDATE=27.05.2020>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30-maydagi "Sarmishsoy, Shahrisabz, Termiz va Qo'qon davlat muzey qo'riqxonalarini tashkil etish haqida" gi 443-sonli qarori.  
<https://lex.uz/ru/docs/4358328?ONDATE=30.05.2019%2000>
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30-maydagi "Sarmishsoy, Shahrisabz, Termiz va Qo'qon davlat muzey qo'riqxonalarini tashkil etish haqida"gi 443-sonli qarori.  
<https://lex.uz/ru/docs/4358328?ONDATE=30.05.2019%2000>
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 03.03.2021 yildagi "Moddiy madaniy meros obektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 119-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-5320217>
13. Xushvaqov N. "Kesh tarixi va madaniyati" (Shahrisabz davlat muzey-qo'riqxonasi matereallari asosida) nomli tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Qarshi: 2023 y. B.:18.



UDK:94(575.1)

**Dilobar OCHILOVA,**  
*Alfraganus universiteti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: ochilova.dilobar1908@gmail.com*  
**Sarvar BOYMIRZAYEV,**  
*Alfraganus universiteti dotsent v.b., PhD*

*PhD S.Ulasheva taqrizi asosida*

### O‘ZBEKISTON TARIXI DAVLAT MUZEYI ARXELOGIYA FONDINING SHAKLLANISHI VA BOYISHIDA O‘ZBEK ARXEOLGLARI OLIMLARINING HISSASI

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining 1876-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan shakllanishi va boyish jarayonini yoritadi. Maqolada O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondini ashyolar bilan boyitilishiga O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetida tahsil olgan taniqli arxeolog-olimlarning qo‘shgan hissasi, noyob eksponatlarining ekspozitsiyada namoyish etilishi atroflicha tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi, Arxeologiya fondi, arxeologik topilmalar, O‘zMU Tarix fakulteti, M.Ye. Masson, Yu.F. Buryakov, L.I. Albaum, Y.G. G‘ulomov, buddaviylik haykallari, Temuriylar davri, paleolit antropologik topilmalar, madaniy meros, ekspeditsiya, muzeyshunoslik, O‘zbek arxeologiyasi

### CONTRIBUTION OF UZBEKISTAN SCIENTISTS TO THE FORMATION AND ENRICHMENT OF THE ARCHAEOLOGICAL FUND OF THE STATE MUSEUM OF THE HISTORY OF UZBEKISTAN

Annotation

This article covers the formation and enrichment of the archaeological fund of the State Museum of the History of Uzbekistan from 1876 to the present day. The article provides a detailed analysis of the contribution of prominent archaeologists-scientists who studied at the Faculty of History of the National University of Uzbekistan to the enrichment of the archaeological fund of the State Museum of the History of Uzbekistan with objects, as well as the display of their unique exhibits in the exposition.

**Key words:** State Museum of the History of Uzbekistan, Archaeological Fund, archaeological finds, Faculty of History of the National University of Uzbekistan, M.Ye. Masson, Yu.F. Buryakov, L.I. Albaum, Y.G. Gulyamov, Buddhist sculptures, Timurid era, Paleolithic anthropological finds, cultural heritage, expedition, museology, Uzbek archeology.

### ВКЛАД АРХЕОЛОГОВ УЗБЕКИСТАНА В ФОРМИРОВАНИЕ И ПОПОЛНЕНИЕ АРХЕОЛОГИЧЕСКОГО ФОНДА ГОСУДАРСТВЕННОГО МУЗЕЯ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье рассматривается формирование и расширение археологической коллекции Государственного музея истории Узбекистана с 1876 года по настоящее время. Подробно анализируется вклад видных археологов, обучавшихся на историческом факультете Национального университета Узбекистана, в пополнение археологической коллекции Государственного музея истории Узбекистана, а также экспонирование их уникальных экспонатов.

Ключевые слова: Государственный музей истории Узбекистана, Археологический фонд, археологические находки, Исторический факультет Национального университета Узбекистана, М.Е. Массон, Ю.Ф. Буряков, Л.И. Альбаум, Ю.Г. Гулямов, буддийские скульптуры, эпоха Тимуридов, палеолитические антропологические находки, культурное наследие, экспедиция, музееведение, узбекская археология

**Kirish.** Muzeylar o‘tmishni kelajakka yetkazuvchi madaniy ko‘priklardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Muzeylarning ijtimoiy funksiyasi bir biriga o‘xshash bo‘lsada, ularda namoyish etilayotgan eksponatlarining turiga qarab turlicha nomlanadi. Tarix yoki o‘lkashunoslik muzeylarida saqlanayotgan ashyolarning katta qismini arxeologik topilmalar tashkil etadi. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini arxeologiya fondi ham shular jumlasidandir. 75 mingdan ortiq ashyoga ega [1] Arxeologiya fondini shakllanishi va rivojlanishida O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetida tahsil olgan hamda o‘z faoliyatini mingyillik tariximizni arxeologik jihatdan o‘rganishga bel bog‘lagan olimlarimizning mehnati beqiyosdir.

**Tahlil va natijalar.** O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi 1876-yil 12-iyulda Toshkent muzeyi nomi bilan tashkil etilgan. Muzey tashkil etilganidan bugungi kunga qadar bir nechta fondlar tuzilgan va tugatilgan, faqat 3 ta ya‘ni arxeologiya, numizmatika va etnografiya fondlari muzey tashkil etilganidan buyon muntazam faoliyat olib bormoqda.

Muзей ekspozitsiyasida hamda xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etilayotgan noyob eksponatlarining bir nechtasi arxeologik topilmalardan tashkil topgan. Muzeyga taqdim etilgan arxeologik topilmalarning asosiy qismi arxeologlar tomonidan taqdim etilgan. Ushbu arxeologlarning 70 % dan ortig‘i O‘zMUning Tarix fakulteti bilan chambarchas bog‘liq.

Xususan, O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi (O‘rta osiyo bosh muzeyi) 1923-1929-yillarda arxeologiya bo‘limi mudiri lavozimida ishlagan M.Y. Massonning bo‘lim faoliyatini tashkillashtirish, arxeologik va numizmatik kolleksiyalarning boyitilishi va ularning qayd etilishida xizmatlari katta bo‘ldi. 1924-1929-yillar davomida Arxeologiya bo‘limining arxeologiya va numizmatika qayd kitoblarida olim tomonidan kalligrafik husnixat bilan yozilgan bitiklari hozirgacha saqlanib qolgan. M.Y. Masson 1927-yilning oktyabrida Avliyo Ota (qadimgi Tarozi) ga qilgan safaridan ham muzeyga boy va noyob kolleksiya keltirgan. Keltirilgan buyumlar orasida V–VII asrlarga oid qoplama lavhalar, o‘rta asrlarning

ilk davri va o'rta asrlar davri sopolari namunalari, shisha idishlar parchalari mavjud edi [6].

1928-yilda Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy masjidini ta'mirlash paytida ushbu yodgorlik M.Y. Masson va T.M. Mirg'iyazov tomonidan arxeologik ko'rikdan o'tkazildi. To'plangan material, jumladan, XII – XIII asrlarga oid uchta o'yama naqshli yog'och ustunlar muzeyga keltirildi [25].

M.E. Vorones, A.I. Terenokhin, T.M. Mirg'iyazov va G.P. Savelyev kabi arxeologlar tomonidan 1940-yilda Toshkent kanali qazilishida olib borilgan arxeologik qidiruv paytida tosh, bronza, temir davriga oid jami 37 ta yodgorlik o'rganilib, ulardan bronza davriga oid maishiy buyumlar, Burg'uluq madaniyatiga oid sopol idishlar, I-III asrga oid antiqa sopol tobut, shuningdek, asosan ko'zalar, tuvaklar, qizg'ish tus berilgan piyolalar, X-XII asrga oid sirlangan sopol bo'laklari va boshqa ashyolar topilgan [12]. 1940 – 1941-yillarda A.I. Terenokhin tomonidan Toshkentdagi Oqtepa qo'rg'oni qoldiqlarida arxeologik qazish ishlari olib borildi. Qazish jarayonida VI – XII asr moddiy madaniyatiga oid asosiy qismi me'moriy naqsh bo'laklari va sopol idishlardan iborat bo'lgan katta miqdordagi buyumlar topildi va muzeyga keltirildi.

Arxeologiya fondini boyitilishida O'zMU tarix fakultetini bitiruvchilaridan muzeyda faoliyat yuritayotgan arxeologiya bo'limi xodimlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etdi. O'z mehnat faoliyatini O'zbekiston tarixi davlat muzeyi bilan bog'lagan arxeologlardan biri, Vorones Maksimilian Emmanuilovich bo'lib, u 1944-1954-yillarda muzeyda faoliyat olib borgan [24, C. 38]. 1939-yilda 300 dan ortiq Toshkent viloyatidagi arxeologik obyektlarni aniqlab, arxeologik xaritasini tuzgan. Uning rahbarligi va tashabbusi bilan tarix muzeyining «Trudov» to'plami nashr etilgan [21].

1940-1950-yillarda S.K. Kabanov, V.D. Jukov, L.P. Matveyev, M.D. Korzuxina kabi arxeologlar Muzei Arxeologiya fondining Qashqadaryo kolleksiyasi tashkil etilishida ulkan hissalarini qo'shganlar [18].

Muzeyning Arxeologiya fondini rivojlantirishda 28 yil (1946 – 1974 yillar) davomida muzeyda ishlagan arxeolog V.I. Sprishevskiy o'zining ulkan hissasini qo'shgan. 1946-yilda Y.G'. G'ulomov bilan Qoraqalpog'istondagi Jonbozqal'a 4b, 5, 6 yodgorligini o'rganish davomida topilgan 96 ta arxeologik topilma muzei Arxeologiya fondining 90 – sonli kolleksiyasidan joy olgan [23]. 1950-1951-yillarda Farg'ona vodiysidagi so'nggi bronza davriga tegishli (miloddan avvalgi II ming yillik) va milodiy II asrga oid Chust qabristonida M.E. Vorones bilan qazish ishlarini amalga oshirgan [7]. 1965-yilda V.I. Sprishevskiy Moskva Etnografiya institutidan Muzei Xazoraspidan topilgan antik va o'rta asrlarga oid kulolchilik kolleksiyasi; Yakkaporsondan topilgan ilk o'rta asrlarga oid sopol idishlar; Angka-5 manzilgohidan topilgan bronza davriga oid sopol buyumlar; Qo'yqirilganqal'adan topilgan antik davr yodgorligi sanalgan kulolchilik kolleksiyasi, Dingiljidan topilgan neolit davriga oid tosh qurollarni keltirib topshirdi. Ular orasida neolit davriga oid nodir sopol kosa, Qo'yqirilganqal'adan topilgan o'tirgan holatdagi ayolning bo'rtma tasviri tushirilgan ostadon katta ilmiy qiziqish uyg'otdi. Ushbu ostadon milodiy I asrga oid bo'lib, dafn marosimida ishlatish uchun loydan haykal ko'rinishida yasalgan. Bu ashyo 1995-yilda «Noyob ashyo» sifatida Vazirlar Mahkamasining 236-sonli qaroriga binoan ro'yxatdan o'tkazilgan [26].

Muzeyga 1950-yillarda V.A. Shishkin tomonidan VI-VII asrlar Buxoro hukmdorlarining shahar tashqarisidagi qarorgohi sanalgan Varaxsha hududidagi qazish joylaridan arxeologik materiallar keltirildi. Kolleksiyada sopol va tosh buyumlar, metallardan ishlangan ashyolar, Varaxsha saroyi ayvonini bezab turgan ajoyib ganch bezaklar bor edi [22].

1955-yilda G.V. Parfenov va V.I. Sprishevskiy Bo'zsuvi GES atrofida, 1956-yilda esa Sho'ralisoy (Bo'zsuvi II) kuzatuv arxeologik tadqiqotini olib boradi. Paleolit (asosan muste davri) davriga oid nukleus, tosh plastina, uchi o'tkirlangan boshqa turdagi qurollar topilgan. 1960-yilda K.A. Shaxurin tomonidan Toshkent viloyati Yangiobod hududidan X-XI asrlarga oid sirlangan idishlar, shishadan yasalgan bir qancha idishlar to'plangan va muzeyga keltirilgan [10].

Arxeologiya sohasida salmoqli faoliyat yuritgan arxeolog-olimlardan yana biri Buryakov Yuriy Feodorovich bo'lib, u 1956-1965-yillarda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyida kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimlarida ishlagan. Arxeolog-olim tomonidan muzeyga topshirilgan topilmalar muzei asosiy fondida quyidagi kolleksiya raqamlari ostida saqlanmoqda: 96-sonli kolleksiyada 1965-yildagi qazishma ishlari natijasida Burchmulladan topilgan 302 ta arxeologik topilmalar, 97-sonli kolleksiyada Pskemtepadan topilgan 74 ta arxeologik topilmalar jamlangan. 1964-yil o'rganilgan Toshkent viloyatida joylashgan Qadimgi To'rtko'tepa 1-P dan topilgan 31 dona arxeologik materiallar, 99-sonli kolleksiyada 1964-1965-yillarda Kadavattepa yodgorligidan topilgan 189 dona arxeologik topilmalar saqlanmoqda. 241-sonli kolleksiyada 1960-yilda Naugarzonsoy-Ohangarondan topilgan 1 ta sopol buyum, 266-sonli kolleksiyada esa, Mingo'rik yodgorligida D.G. Zilper bilan 1953-1957, 1958-1959, 1962-yillar davomida tashkil etilgan qazish ishlari natijasida qo'lga kiritilgan 379 ta arxeologik topilmalar saqlanmoqda [5]. 268-sonli kolleksiyada S.X. Ishonxo'jayeva bilan 1957-yilda Oqqo'rg'on, Qanqa va Shohruhiyadan to'plagan 121 ta sopol buyumlar jamlangan. 272-sonli kolleksiyada O'rta asrlardagi Tunkat-qadimgi Iloq shahri o'rnidan S.X. Ishonxo'jayeva bilan 1959-1960-yillarda to'plagan 732 ta arxeologik topilmalar, shuningdek, 301-sonli kolleksiyada 1973-yilda Shohruxiya shahri o'rnidan topgan 99 ta arxeologik materiallar to'plangan [16]. Y.F. Buryakov faoliyatining muhim jihati arxeologik yodgorliklarni aniqlash va saqlash bilan bog'liq [2].

O'zbek arxeologiyasini rivojlanishiga o'zining beqiyos xizmatlarini qo'shgan arxeolog L.I. Albaum 1975-1995-yillarda muzeyda katta ilmiy xodim lavozimida ishlagan. Arxeolog tomonidan topshirilgan arxeologik topilmalar O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Arxeologiya fondining bir nechta kolleksiyalarida jamlangan.

L.I. Albaum tomonidan Eski Termiz shahridan topilgan 93 ta sopol quvur parchalari 284-sonli kolleksiyasida to'plangan [4, C. 56-58]. Arxeolog tomonidan topilgan 1986-yil Chingiztepa yodgorligidan 1140 dona arxitekturaviy dekor va boshqa arxeologik topilmalar [20]; 1980-yil Eski Termizdan [13] XII-XIV asrlarga oid 124 ta sopol idish parchalari; 1956-1958-yillarda VI-VII asrlarga oid Jumalaktepa yodgorligidan yoqib yuborilgan yog'ochdan yasalgan 3 ta haykal parchasi [14], 1962-yilda VII-VIII asrlarga oid Zangtepa qal'asidan 66 dona sanskrit tilida yozilgan qayin parchasi [15] arxeologiya fondida saqlanmoqda.

Muzeyga xodimlari A.A. Musakayeva va P.I. Gendelman Eski Termiz [8] va Sho'robqo'rg'onidan sopol va gildan yasalgan buyumlar, shisha, bronza, temir, tosh va suyakdan ishlangan bezak mahsulotlarini topib keltirgan. Ular orasidagi turli xil naqsh o'yib ishlangan patnislar alohida qiziqish uyg'otadi.

1986-1988-yillarda M.I. Filanovich Muzei Binkat, Shoshtepa, Yunusobod Oqtepsi hududlaridan, shuningdek, Chilonzordagi Bog'iston qabristonidan topilgan materiallarni topshirdi [11]. Ular orasida Shoshtepadan topilgan, X – XII asrlarga oid, hayvonlar tasviri tushirilgan sirlangan idishlar bo'laklari, Pinkatdan topilgan, XII asrga oid epigrafik

naqshlar, sopollar e'tiborni tortadi. Natijada Muzey Toshkent va shahar atrofining miloddan avvalgi I asrning o'rtalaridan boshlab to o'rta asrlarning oxirlarigacha bo'lgan davri tarixiga oid arxeologik topilmalar jamlanmasiga ega bo'ldi.

1991-yilda K.A. Alimov, V.S. Minasyans [9] va P.I. Gendelman Muzeiya Yemishqazi shaharchasidan (Toshkent viloyati To'ytepa shahri atrofida) 17 dona simob saqlashga mo'ljallangan sopol idishlarni keltirgan. Bu davr oralig'ida muzey o'zining ikkinchi rivojlanishi bosqichini bosib o'tdi.

O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Arxeologiya fondining 3-rivojlanish davri bevosita mustaqillikka erishgandan keyin boshlandi. O'lkadagi bir qator qadimiy manzilgohlarni o'rganish natijasida topilgan topilmalar bilan muzeyning Arxeologiya fondi boyib bormoqda.

1991-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya instituti Shosh-Ustrushona ekspeditsiyasining Qanqa otryadi rahbari G.I. Bogomolov 1981-1990-yillarda Qanqa shahrida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan 120 ga yaqin buyumni muzeyga topshirdi. Ushbu topilmalarning katta qismini sopol idish bo'laklari, simobko'zachalar, quvur bo'lagi, shisha idish bo'laklari va toshlardan yasalgan taqinchoqlar tashkil etadi.

Muzeyning Arxeologiya fondida arxeologik ekspeditsiya natijalarida topilgan yozuv namunalari ham topshirilgan. Inson madaniyatining belgilaridan biri bo'lgan yozuvning paydo bo'lishi dastlab Osiyo va Shimoliy Afrika (qadimgi Misr)ga borib taqaladi. Odamlar tomonidan yaratilgan bilimlar, kashfiyotlar ajdodlardan avlodlarga aynan yozuv orqali yetib kelmoqda. Mintaqada qadim zamonlarda turli xil yozuvlardan foydalanilgan. Bular oromiy yozuviga asoslangan xorazm, so'g'd, baqtriya, kharoshti, yunon, parfiya, yahudiy, runiy, kufiy yozuvlaridir. Ushbu yozuv namunalari Surxon vohasida joylashgan Eski Termiz hududidan ko'plab topilgan. Bunga dalil qilib L.I. Albaum tomonidan muzeyga topshirilgan arxeologik topilmalarni olish mumkin. 1995-yilda L.I. Albaum tomonidan muzeyga I-II asrlarga oid navbatdagi kolleksiya topshirildi. Ularning orasida terrakota haykalchalarning qoliplari, kharoshti va baqtriya yozuvi bo'lgan sopol idish parchalari, toshga o'yib chizilgan nilufar guli bargi va yozuv, kharoshti yozuvi tushirilgan ohaktosh parchasining mavjudligi Surxon vohasi hududida antik davrda madaniyatning rivojlanganligini isbotlab beradi.

Topilmalar orasida bir necha tilda yozilgan yozuvlarni topilishi antik davrda O'zbekiston hududida yashagan insonlar ushbu yozuvlardan foydalanganligidan dalolatdir.

1998-yil 22-iyunda E. Nekrasova va D. Chunixinalar tomonidan Qashqadaryo, Xorazm viloyatlaridan 1985-1991-yillarda to'plangan 52 ta arxeologik topilma muzeyga topshildi [17]. Ashyolar orasida simobko'zachalar, sopol idishlar va ularning parchalari, shisha idish bo'laklari, terrakota haykalchalarning bo'laklari, bronza halqa va temir buyum bo'laklari mavjud. Topilmalar orasida odamning tasviri va uning atrofida duradgorlik belgilari bo'lgan ostonadonning bir qismini borligi ushbu ostonadon duradgorlik bilan shug'ullangan usta uchun yasalgan degan taxminga kelish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki, insonlar ostonalarda imkon qadar marhum haqida ma'lumot beruvchi tasvirlarni ifodalashga harakat qilishgan.

2002-yilning yanvarida Muzeiya akademik Y.F. Buryakov tomonidan Shohruhiya shaharchasidan 2001-

yilda topilgan XV asrga oid harbiy sovut keltirildi. Bu Temuriylar davriga tegishli sovut hisoblanadi. Demak, ushbu sovut Sohibqiron Amir Temur askarlaridan biriga tegishli ekanligi haqiqatga yaqin.

Tarix fanlar doktori R.H. Sulaymonov 2003-yil Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida o'rta Paleolit davriga oid Angilak manzilgohidan (42 mingyillik) topilgan odam oyog'ining 6.7 sm li 1 dona metatarsal suyagini 2013-yilda muzeyga taqdim etadi. U o'rta paleolit davri (42 mingyillik)ga oid.

O'zbekistonning bir necha hududlaridan, jumladan Surxondaryo, Farg'ona, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlaridan paleolit davri manzilgohlaridan tosh qurollari va hayvon suyaklarining qoldiqlari bilan bir qatorda odam suyaklarining topilishi tosh davridan odamlar bu yerlarda muqim yashaganligidan dalolat beradi. Bu esa O'zbekiston tarixi juda uzoq mingyilliklarga borib taqalishini muzeyga tashrif buyurgan har qanday inson tushunishi aniq.

2011-yilda Arxeologiya institutining Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlikda Jizzax viloyatining Zomin tumani Beshkubi qishlog'ida olib borilgan arxeologik ekspeditsiyasi natijasida topilgan X-XII asrlarga oid bronza oyna va IX-XI asrlarga oid temirdan ishlangan kamon o'qi uchi ilmiy o'rganilgandan so'ng, 2012-yil O'zR FA Arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi G.I. Bogomolov tomonidan muzeyga topshirilgan [19]. Muzeiya Arxeologiya fondi va ekspozitsiyasida bir qancha bronza ishlangan ko'zgular mavjud bo'lib faqat ushbu ko'zgudagina ichki tomonida to'liq aylana shaklda arab yozuvidagi bitik mavjud. Ushbu bronza oynaning diametri 10.4 sm. ko'zgu dumaloq shaklda bo'lib markazida ilgagi bor. Ikki qanotli sfinks tasvirlangan. Bundan ko'rinib turibdiki o'lkada islom dini rivojlangan davrda ham hunarmandlar bezak sifatida turli hayvonlar va shunga o'xshash tasvirlardan foydalangan.

Shu o'rinda muzeydagi xalqaro aloqalarni rivojlantirishda o'zining faolligini ko'rsatgan ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori Aripdjanov Otabek Yusupdjanovichning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz. 2013-2019-yillarda O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Tokio universiteti muzeyi bilan «O'zbekiston hududida tosh davri yodgorliklarini tadqiq etish» bo'yicha Qashqadaryo viloyatining Yakkabog', Chiroqchi, tumanlari va Navoiy viloyatining Nurota tumani hududidagi o'rta tosh davri yodgorliklari o'rganildi.

O'zbekiston Milliy universitetining imijini oshirish, xorijiy talabalarni jalb qilish va ular ishtirokida manzilli tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda. Jumladan, 2021-yilda MDHga a'zo davlatlarning gumanitar hamkorlik bo'yicha davlatlararo jamg'armasi ko'magida O'zMUda "O'rta Osiyo tarixi va madaniyati" Xalqaro yoshlar maktabi tashkil qilindi [3].

**Xulosa.** Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti bitiruvchilarining arxeologiya sohasida olib borgan ilmiy izlanishlari O'zbekiston tarixi davlat muzeyi Arxeologiya fondining shakllanishi va boyitilishida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotlar natijasida fond noyob arxeologik ashyolar bilan to'ldirildi, bu esa muzey ekspozitsiyalarining ilmiy qiymati va madaniy-ma'naviy ahamiyatini yanada yuksaltirdi. Natijada muzey nafaqat mahalliy tashrif buyuruvchilar uchun ilmiy-ma'rifiy markazga, balki xalqaro jamoatchilik e'tirofini qozongan nufuzli ilmiy-ma'naviy maskanga aylandi.

#### ADABIYOTLAR

1. Boymirzayev S. O'zbekiston tarixi davlat muzeyi arxeologiya fondining shakllanishi va rivojlanishi. PhD diss. T.2023. 40-b.
2. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti 105 yoshda. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2023. – B. 202.

3. Ochilova D. O'zbekistonda tarix fanini rivojlantirishning ilmiy asoslari//Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. T., 2024. – B. 145.
4. Альбаум Л.И. Позднекушанское погребальное сооружение под Термезом // Общественные науки в Узбекистане. 1968. № 8. – С. 56-58 (совм. с Т. Агзамходжаевым).
5. Буряков Ю.Ф. Раскопки на городище Мингурюк// Ташкентская правда, 6 марта, 1957.
6. Вазирлар Махкамасининг «Республика музейлари фаолиятини тартибга солувчи норматив хужжатларни тасдиқлаш тўғрисида»ги 236 сонли қарори. 1995 йил 26 июнь.
7. Гендельман П.И. Набор бронзовых изделий с городища Старого Термеза // Времен связующая нить – Т., Фан 1992 – С. 145-150.
8. Дукe X. Чирақчинское поселение // ИМКУ. Вып. XVII. – Т., 1982. – С. 13-14.
9. Левтеева Л. «Триада» из Фаязтепе // Вечерний Ташкент, 9 октября 2002 года.
10. Левтеева Л., Минасянц В. Эхо ушедших эпох. – Т., 2017. – С. 49.
11. Левтеева Л., Минасянц В. Эхо ушедших эпох. – Т., 2017. – С. 49.
12. Минасянц В.С. Алпаткина Т.Г. Т.М. Миргиязов-малоизвестное имя в среднеазиатской археологии. – Т., 2014. – С. 25.
13. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 137, 147 сонли коллекция китоблари.
14. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 208 сонли коллекция китобидан.
15. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 262 сонли коллекция китобидан.
16. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 274 сонли коллекция китобидан.
17. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 300 сонли коллекция китобидан.
18. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 301 сонли коллекция китобидан.
19. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 307 сонли коллекция китобидан.
20. Ўзбекистон тарихи давлат музейи археология фондининг 94 сонли коллекция китобидан.
21. ЎзФА МА. 59 - фонд, 1 - рўйхат, 1 - йиғмажилд, 77 - варақ.
22. ЎзФА МА. 59 - фонд, 1 - рўйхат, 1 - йиғмажилд, 85 - варақ.
23. ЎзФА МА. 59 - фонд, 1 - рўйхат, 17 - йиғмажилд, 26 - варақ.
24. ЎзФА МА.59 - фонд, 1 - рўйхат, 1 - йиғмажилд, 66 - варақ.
25. Умняков И.И. Археологическая и ремонтно-реставрационная работа Средакомстариса в 1927 году. // Известия Средакомстариса. Вып. III. – Т., 1928. – С. 268.
26. Усманова З.И. Расписная керамика из раскопок В.Д. Жукова. // Времен связующая нить. – Т. Фан, 1992. – С. 136-144.



UDK:908

*A'zamjon TO'XTABAYEV,*  
*Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD*  
*E-mail: toxtabayev09051981@gmail.com*

*IPU dotsenti B.Toshpulatov taqrizi asosida*

## O‘ZBEKISTON HAVO TRANSPORTI TARIXI: RIVOJLANISH VA XALQARO STANDARTLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida fuqaro aviatsiyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari, Sovet Ittifoqi davrida havo transportining tashkiliy tuzilmasi, xalqaro aviatsiya huquqiy asoslarining yaratilishi va ICAO hamda IATA kabi xalqaro tashkilotlarning roli ilmiy tahlil qilingan. Aviatsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati, infratuzilmaning rivojlanishi va fuqaro aviatsiyasining davlatlararo hamkorlikni kuchaytirishdagi o‘rni yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Fuqaro aviatsiyasi, ICAO, IATA, Sovet Ittifoqi, O‘zbekiston aviatsiyasi, havo transporti, Chikago konvensiyasi.

## ИСТОРИЯ ВОЗДУШНОГО ТРАНСПОРТА УЗБЕКИСТАНА: РАЗВИТИЕ И МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ

Аннотация

В статье исследуются процессы формирования и развития гражданской авиации на территории Узбекистана, организационная структура воздушного транспорта в период СССР, становление международно-правовых основ авиации, а также роль таких международных организаций, как ICAO и IATA. Проанализированы экономическое и социальное значение авиации, развитие инфраструктуры и её значение для международного сотрудничества.

**Ключевые слова:** Гражданская авиация, ICAO, IATA, СССР, авиация Узбекистана, воздушный транспорт, Чикагская конвенция.

## HISTORY OF AIR TRANSPORT OF UZBEKISTAN: DEVELOPMENT AND INTERNATIONAL STANDARDS

Annotation

The article examines the formation and development of civil aviation in Uzbekistan, the organizational structure of air transport during the Soviet period, and the establishment of the international legal framework of aviation, including the role of ICAO and IATA. The study highlights the economic and social significance of aviation, infrastructure development, and its role in strengthening international cooperation.

**Key words:** Civil aviation, ICAO, IATA, Soviet Union, Uzbekistan aviation, air transport, Chicago Convention.

**Kirish.** O‘zbekiston hududida ham Sovet Ittifoqi ta’sirida bir necha bor strukturaviy tuzilmada o‘zgarishlar bo‘lganini ko‘rish mumkin. Ushbu davrda dastlabki aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yilib, yo‘lovchi, yuk va pochta ichki havo yo‘llarida tashilib, fuqaro aviatsiyasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi. Mahalliy va xalqaro havo yo‘llaridagi parvozlarda asosan, xorijda ishlab chiqarilgan havo kemalaridan foydalanildi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Soha taraqqiyotida 1946-yilda dunyo bo‘yicha 20 mln. yo‘lovchi tashilgan bo‘lsa, 1980-yilda bu 700 mln., 1990 yilda 1,2 mlrd., 2000-yilda 1,4 mlrd. yo‘lovchidan ortishi bilan taqqoslash mumkin. Bugungi kunda jahonning deyarli mamlakat va mintaqalari o‘zaro havo yo‘llari orqali bog‘langan. Dunyo bo‘yicha 500 dan ortiq aeroportlardan 300 dan ortig‘i xalqaro maqomga ega, ularning 100 dan ortig‘i esa eng yirik aeroportlar (yiliga 10–20 mln.dan ortiq yo‘lovchi tashish) hisoblanadi. Shu ma’noda Chikago, Nyu-york, Los-Andjelos, London, Moskva, Sankt-Peterburg, Parij, Berlin, Tokio, Pekin, Bombay, Qohira va Toshkent eng yirik aeroportlar qatoriga kiradi. Dunyodagi eng yirik – Xitrou (London) aeroporti sutkasiga 700 dan ortiq samolyot va 100 mingdan ortiq yo‘lovchiga xizmat qilgan. Havo transporti rivojlangan mamlakatlar sirasiga AQSH, Rossiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va Avstraliya kiradi. Havo transporti tobora mamlakatlarning bosh transport vositasiga aylanmoqda.

Sovetlar boshqaruvi yillarida aviatransport nafaqat transport, balki iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida aviatsiya vazifasini ham bajardi. Natijada, aviatsiyadan qishloq

xo‘jaligida (XX asrning 20-yillari o‘rtalari) foydalanildi, aviatsiya ishlarini bajarish uchun yangi texnologiyalar va usullarni ishlab chiqildi, Havo transportida aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish va bir qator sanitariya tadbirlari (XX asrning 30-yillari) amalga oshirildi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligida aviatsiyadan keng foydalanildi va havo yo‘llariga mahalliy samolyotlar olib kirildi. Keyinchalik mahalliy fuqarolik samolyotlarining texnik ekspluatatsiyasi tashkil etildi, yuqori texnik xizmat ko‘rsatish va aviatsiya texnikasi hamda yer usti uskunalarning muammosiz ishlashi ta’minlandi, bir nechta aviatsiya ustaxonalari (XX asrning 30-yillari oxiri) barpo etildi. O‘zbekiston SSR hududida dastlabki aeroportlar (XX asrning 30-yillar boshlarida) qurildi.

Havo transportini rivojlanib borishi natijasida, o‘zaro aloqalar va boshqaruv tizimiga ehtiyoj sezila boshladi. Xalqaro havo qatnovlarining tijorat ekspluatatsiyasining umumiy qoidalarini o‘rnatish maqsadida oltita Yevropa aviakompaniyasi (Angliya, Germaniya, Gollandiya, Daniya, Norvegiya va Shvetsiya) 1919-yil avgust oyi oxirida Gaaga(Gollandiya)da Xalqaro havo transporti uyushmasi – IATA (inglizcha international air transporti association)ga asos solindi. 1939-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlanishi munosabati bilan uyushma o‘z faoliyatini to‘xtatdi. Bu vaqtda kelib tashkilot 29 ta aviakompaniyani o‘z ichiga olgan, ulardan 25 tasi Yevropa mamlakatlariga qarashli bo‘lgan. IATA – xalqaro nodavlat tashkilot bo‘lib, dunyo bo‘ylab havo transport faoliyatini nazorat qilgan. Tashkilotning maqsadi, odamlar va tovarlarning xavfsizligi, muntazam hamda tejamkor havo transportini tashkil etish, xalqaro havo

transporti bilan shug'ullanadigan barcha kompaniyalarning hamkorligini yengillashtirishdan iborat. U ikki jahon urushi (1919-1939 yy.) orasida faoliyat yuritgan. IATA tasniflash uchun aeroportlarga, aviakompaniyalarga va samolyot turlariga (jumladan, mustaqillik yillarida O'zbekiston havo yo'llariga HY kodi berilgan) kodlarni beradi. IATA uchun xavfsizlik bosh vazifa sifatida ustuvor yo'nalish bo'lib, uning parvozlar xavfsizligini ta'minlashda asosiy hamkori – Xalqaro Operatsion xavfsizlik auditi (IOCA – Xalqaro Operatsion xavfsizlik auditi) – bu dastur xalqaro miqyosda tan olingan va e'tirof etilgan baholash tizim bo'lib, aviakompaniyaning operatsion boshqaruv va nazorat tizimlarini baholashga mo'ljallangan) tashkiloti hisoblanadi. IOCA auditi bir qator davlatlar tomonidan parvozlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha davlat talabi sifatida ham e'tirof etilgan.

**Natijalar va muhokama.** Ikkinchi jahon urushining oxiriga kelib, fuqaro aviatsiyasining jadal rivojlanishi kuzatildi. Bu dunyo xalqlarining ijtimoiy aloqalarining ikki tizimi (harbiy va fuqarolik) transport harakatining rivojini yangi davri edi. Zero, yuz minglab odamlarni mobil tezlikda davlatlararo harakatlanishi eng tezkor transportga tayyorlagan edi. Biroq, bunday havo transporti harakati nafaqat tashkiliy, balki qonuniy ro'yxatdan o'tishi, o'zga mamlakatga ommaviy parvoz davlat chegarasini samolyotda kesib o'tish, davlatning milliy suverenitetiga ta'siri kabi nizo va mojaroli holatlarga olib keldi.

1944-yil 7-dekabrda 54 davlat tomonidan tuzilgan va imzolangan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi (ICAO) to'g'risidagi konvensiya hamkorlikni rivojlantirish hamda “dunyo xalqlari va xalqlari o'rtasida do'stlik va hamjihatlikni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash” maqsadida yaratilgan. “Chikago konvensiyasi” nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu tarixiy kelishuv xalqaro havo qatnovining asosiy tamoyillarini belgilab berdi va ixtisoslashgan agentlik – Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining tashkil etilishiga olib keldi.

Chikago konvensiyasining imzolanishi va ICAO tashkil etilishi munosabati bilan 1944-yil dekabr oyida Chikagoda yig'ilgan dunyoning 34 aviakompaniyasi vakillari urushdan oldingi IATA faoliyatini davom ettira oladigan yangi tashkilot yaratishga qaror qilishdi. Bu tashkilot – IATA qisqartirilgan nomini saqlab qolgan Xalqaro havo transporti assotsiatsiyasi 1945-yil 19-aprelda Gavana(Kuba)da 31 davlatdan 50 ta aviakompaniya vakillari tomonidan imzolangan Nizom asosida tashkil etildi. Mohiyatan, yangi tashkilot Assotsiatsiya, urushdan oldingi IATA (amalda mintaqaviy tashkilot) vorisi bo'lib, barcha besh qit'aning aviakompaniyalarini birlashtirgan tashkilotga aylandi.

Yo'lovchi tashishni sotish bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni tizimi chiptalarni berish jarayonini soddalashtirib, uning xarajatlarini kamaytirdi. Bundan tashqari, IATA xalqaro havo transporti tariflari bilan bog'liq barcha masalalar bo'yicha qonunchilik va maslahat organi hisoblanadi. Yo'lovchilar tashish hajmi, marshrutlar tarmog'ini rivojlantirish, aeroportlarda yo'lovchilarning yuklariga xizmat ko'rsatish, aeroportlarni rekonstruksiya va uni rivojlantirish rejalari bo'yicha muammolarni hal etib, ish standartlarini belgilaydi.

Assotsiatsiya parvozlar va aviatsiya xavfsizligi, aviatsiyani ekspluatatsiya qilish, tarif siyosati, texnik xizmat ko'rsatish, ICAO bilan hamkorlikda xalqaro standartlarni ishlab chiqish kabi sohalarida havo transporti tarmog'i manfaatlari koordinatori va vakili sifatida faoliyat yuritadi. IATA faoliyatining eng muhim yo'nalishi – transport vositalarini neytral avia chipta shaklida sotish tizimiga

asoslangan holda havo transporti subyektlari o'rtasida o'zaro hisob-kitoblarni tashkil etishdan iborat.

1947-yil 4-apreldan boshlab amalda bo'lgan Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Konvensiyaga – 1959, 1963, 1969, 1975, 1980, 1997, 2000 va 2006-yillarda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Konvensiyaning amaliy ahamiyati ishtirokchilar soni 190 ta mamlakat bo'yicha ham baholash mumkin ekanligidir. SSSR 1970-yil 15-oktabrdan a'zo. Konvensiyaning yagona haqiqiy matni ingliz tilida, 1968-yilda fransuz va ispan tillardagi matni, 1977-yilda rus tilidagi matni imzolangan.

Sovet Ittifoqi hech qachon G'arb mamlakatlarida bo'lgani kabi tijorat aviatsiyasi sanoatiga ega bo'lmagan.

O'zining faoliyati davomida xususiy mulkka yo'l qo'yilmagan mamlakatda, “tijorat aviatsiyasi” o'rniga “fuqaro aviatsiyasi” atamasini ishlatish yanada o'rinni qoldiradi.

“Aeroflot” deb nomlanuvchi sovet fuqaro aviatsiyasi, dunyodagi eng taniqli aviakompaniyalardan biri sifatida tarixda qoldi. O'zbekiston aviatsiyasining rivoji ham ana shu tarixiy siyosiy-iqtisodiy tizim bilan chambarchas bog'liq holda kechgan. XX asrning 30-yillarida birinchi aeroportlarning qurilishi, mahalliy samolyotlarning ekspluatatsiyaga kiritilishi, texnik xizmat ko'rsatish bazalarining yaratilishi milliy fuqaro aviatsiyasining boshlang'ich bosqichini belgiladi. Umuman, jahon aviatsiyasi dinamikasiga nazar tashlaganda, 1940-2025 yillar oralig'ida yo'lovchi tashish hajmlari keskin o'sgani kuzatiladi. Bu esa aviatsiyaning: transport tizimining yetakchi bo'g'iniga aylanishi, global integratsiya jarayonlarining tezlashishi, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi kabi omillar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda fuqaro aviatsiyasi tizimi vujudga kelishi va rivojlanishi Sovet Ittifoqi siyosati, iqtisodiy manfaatlari va markazlashgan boshqaruv tizimi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. XX asrning 20-40-yillarida aviatsiya sohasi nafaqat yo'lovchi tashish, balki qishloq xo'jaligi, tibbiy xizmatlar, sanitariya chora-tadbirlari va boshqa sohalarida ham samarali qo'llanilib, uning universal transport-texnologik vosita sifatida ahamiyati ortib bordi. Ikkinchi jahon urushi ortidan xalqaro transport munosabatlarining kuchayishi aviatsiya sohasida yagona meyoriy, huquqiy va texnik standartlarni yaratishni talab etdi. Shu ehtiyoj asosida IATA va ICAO kabi xalqaro tashkilotlar tashkil etildi, ular esa bevosita jahon aviatsiyasini tartibga solish, xavfsizlikni ta'minlash, tarif siyosatini yuritish va xalqaro muvofiqlashtirishda katta o'rin tutdi. Ayniqsa, ICAO qabul qilgan xalqaro standartlar aviatsiya faoliyatini huquqiy asosda barqaror rivojlantirishga xizmat qildi. Sovet Ittifoqining o'zi G'arbdagi kabi tijorat aviatsiya sanoatiga ega bo'lmagan bo'lsa-da, uning fuqaro aviatsiya tizimi jahonda eng yirik va markazlashgan avia tarmoqlardan biri sifatida qayd etildi. O'zbekiston aviatsiyasi ham aynan shu tizim doirasida shakllanib, milliy aeroportlar, parvozlar dispetcherlik xizmati, texnik xizmat ko'rsatish bazalari va yangi samolyotlarni ekspluatatsiya qilish ishlarining yo'lga qo'yilishi orqali shakllangan.

**Xulosa.** Hozirgi kunda havo transporti jahon mamlakatlarini birlashtiruvchi strategik kommunikatsiya vositasiga aylangan bo'lib, xalqaro standartlar raqobatbardoshlik, xavfsizlik va yuqori sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlamoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston aviatsiya tarixi va uning keyingi rivoji xalqaro dinamika va geosiyosiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, sohadagi o'zgarishlarning ilmiy tahlili kelgusida milliy aviatsiya tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyatga egadir.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдуллаев О. Иқтисодий география ва экология. Ўқув қўлланма. 1 - қисм. –Наманган.: Наманган нашриёти, 2002. – Б.

2. Белов В. А. Международное торговое право и право ВТО в 3 кн.. Книга 1. Понятие, и источники международного торгового права. Обычное и конвенционное (договорное) международное торговое право: учебник для вузов. – Москва.: Издательство Юрайт, 2020. – С. 248.
3. Икрамов М., Сафаева З., Усмонов Б. Регулирование в сфере гражданской авиации. Учебное пособие. –Ташкент.: Фан, 2006. – С. 60.
4. Тухтабаев А.Ш. История воздушного сообщения в Центральной Азии. Central Asian journal of social sciences and history. Volume: 04 Issue: 6 June 2023 (ISSN: 2660-6836) S-pp 132-135;
5. Tukhtabaev AS. Air transport: Structure, activity, shape. Article. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. 2020, Volume: 10, Issue: 6 pp. 288-291. DOI: 10.5958/2249-7137.2020.00590.X;
6. <https://www.icao.int/Newsroom/Pages/RU/Dominica-becomes-ICAOs-193rd-member-state.aspx>



UDK:908

*Firdavs TO'XTAMESHEV,*  
*Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti*  
*E-mail: f.tukhtamishev@gmail.com*

*NamDTU dotsenti B.Nabiyev taqrizi asosida*

## O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIIYA VA SPORT SOHASIDA KADRLAR MASALASI: TARIXIY TAHLIL

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, mehnat bozorida talab va taklif muvozanatini ta'minlash masalalari yoritilgan. So'nggi yillarda mamlakatda sport infratuzilmasini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasalarida sport mutaxassislarini tayyorlash tizimini takomillashtirish, xalqaro standartlarga mos malakali kadrlar yetishtirishga qaratilgan chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Sport ta'limi, jismoniy tarbiya, kadrlar tayyorlash, sport menejmenti, malaka oshirish, sport siyosati.

## ПРОБЛЕМА КАДРОВ В СФЕРЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье рассматриваются вопросы подготовки кадров в сфере физической культуры и спорта в Республике Узбекистан, повышения их квалификации, а также обеспечения баланса спроса и предложения на рынке труда. Анализируются меры, предпринятые в последние годы в направлении развития спортивной инфраструктуры, совершенствования системы подготовки спортивных специалистов в высших учебных заведениях и подготовки квалифицированных кадров в соответствии с международными стандартами.

**Ключевые слова:** Спортивное образование, физическая культура, подготовка кадров, спортивный менеджмент, повышение квалификации, спортивная политика.

## THE ISSUE OF PERSONNEL IN PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN UZBEKISTAN: A HISTORICAL ANALYSIS

Annotation

This article examines the issues of training personnel in the field of physical education and sports in the Republic of Uzbekistan, improving their qualifications, and ensuring the balance of supply and demand in the labor market. It analyzes recent measures undertaken to develop sports infrastructure, improve the system of training sports specialists in higher education institutions, and prepare qualified personnel that meet international standards.

**Key words:** sports education, physical education, personnel training, sports management, professional development, sports policy.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasi mustaqillik yillaridan boshlab davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, mamlakat ijtimoiy taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. Aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk etib tarbiyalash, sportning xalqaro maydondagi nufuzini oshirish kabi vazifalar sport tizimining sifatli faoliyat yuritishini taqozo etadi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyati esa, eng avvalo, mazkur soha uchun raqobatbardosh, malakali va zamonaviy talablar asosida tayyorlangan kadrlarning yetarli bo'lishiga bevosita bog'liqdir.

Shu jihatdan, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi kadrlar masalasini tarixiy kontekstda o'rganish nafaqat o'tgan davr tajribasini ilmiy baholash, balki hozirgi davrda amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur maqolda O'zbekistonda sport kadrlari tayyorlash tizimining shakllanishi, tarixiy bosqichlari, rivojlanish dinamikasi hamda mavjud muammolar va istiqbolli yo'nalishlar ilmiy tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Tarixiy manbalar ko'rsatadiki, jismoniy tarbiya va sport sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash masalasi o'tgan davrlarda turli bosqichlarni boshdan kechirgan. Sovet davrida markazlashgan va standartlashtirilgan kadrlar tayyorlash tizimi mavjud bo'lsa,

mustaqillikdan keyin milliy sport siyosati, ta'lim tizimi va kadrlar siyosati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Bugungi kunda esa sport sohasida xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash, trener va pedagoglarning malakasini oshirish, sport menejmenti bo'yicha yangi yo'nalishlarni yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga qaratilgan qaror va farmonlari so'nggi yillarda mazkur yo'nalishda tizimli islohotlarning asosiy omiliga aylandi. Sport sohasi nafaqat sog'lom turmush tarzini shakllantirish, balki yoshlarni vatanparvarlik, irodaviylik va jamoaviylik ruhida tarbiyalashning muhim omili sifatida ham e'tirof etilmoqda. Shu bilan birga, sohaning samaradorligini ta'minlashda malakali kadrlar masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekistonning jismoniy tarbiya va sport tizimida kadrlar tayyorlash masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, ularning ilmiy yondashuvlari mazkur sohaning tarixiy evolyutsiyasini chuqurroq anglashga imkon beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sport sohasi uchun mutaxassislarni tayyorlash jarayoni faqat pedagogik tizim doirasidagi masala emas, balki kengroq ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan uzviy bog'liqdir.

P. Bourdieu sportni jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi va kapital shakllari bilan bog'laydi. Uning fikricha, sport

mutaxassisining tayyorlanishi faqat texnik ko'nikmalar bilan emas, balki ijtimoiy kapital va madaniy kompetensiyalar bilan ham belgilanadi. Bu yondashuv O'zbekistonda sport sohasida kadrlar siyosatini takomillashtirishda muhim metodologik asos hisoblanadi.

J. Bloom va C. Chelladurai sport menejmenti rivojida inson resurslarining sifatli boshqarilishini eng muhim omil sifatida ko'rsatadi. Ularning ilmiy qarashlariga ko'ra, sport tizimining barqaror rivoji uchun murabbiylar, hakamlar, menejerlar, metodistlar va sport psixologlari kabi mutaxassislarining puxta tayyorgarligi talab etiladi.

V. Platonov sport tayyorlov tizimini integrativ modelda ko'rsatib, uning markazida ko'p yillik pedagogik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik turishini ta'kidlaydi. U sport ta'limida ilmiy-tadqiqot ishlarining uzluksiz olib borilishi kadrlar sifatini belgilovchi asosiy omil ekanini qayd etadi.

L. Matveev esa sportning pedagogik tizim sifatida shakllanishini ilmiy asoslab, malakali kadrlar tayyorlashda nazariya va amaliyotning uzviy uyg'unligi zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, amaliyotdan uzilgan ta'lim tizimi sifatli mutaxassis yetishtira olmaydi.

M. Rahmonqulovning tadqiqotlarida O'zbekistonda sport sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash jarayoni XX asrning boshlaridan shakllana boshlagani, sovet davrida esa bu tizim markazlashtirilgan holga kelgani ilmiy asoslangan.

A. Kuronov fikricha, mustaqillikdan keyin milliy sport kadrlar siyosati shakllanib, sport turlari bo'yicha ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari, litsey va kollejlarda faoliyati tubdan yangilangan.

N. Nurmatov sport pedagogikasida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligini asoslab, murabbiylar faqat jismoniy tayyorlov emas, balki psixologik, pedagogik va menejerlik kompetensiyalariga ham ega bo'lishi zarurligini aytadi.

S. Ergashev esa O'zbekistonda sport o'qituvchilarining malakasini oshirish jarayoni tizimli bo'lishi kerakligini, amaliyot bilan muntazam aloqadorlik ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ekanini ta'kidlaydi.

Olimlar fikriga tayangan holda aytish mumkinki, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash masalasi chuqur tarixiy ildizlarga ega va bugungi islohotlar mazkur tizimni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan. Ilmiy yondashuvlar, modernizatsiya, raqamli texnologiyalar, xalqaro standartlar va yangicha boshqaruv tamoyillarining uyg'un qo'llanilishi mamlakat sport tizimining raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda sport infratuzilmasining kengayishi, Olimpiya va Paralimpiya sport turlariga qaratilgan e'tiborning oshishi, jismoniy tarbiya tizimida islohotlarning amalga oshirilishi mazkur sohada yuqori malakali kadrlar yetishmasligi muammosini yanada yaqqol namoyon qildi. Mehnat bozorida talab va taklifning nomutanosibligi, ixtisosliklar bo'yicha malaka standartlarining qayta ko'rib chiqilayotganligi, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonining amaliyot bilan uyg'unlashishidagi muammolar ilmiy tahlilni talab etmoqda.

**Natijalar va muhokama.** Bugungi kunda O'zbekistonda 15 dan ortiq oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida bakalavr va magistrlar tayyorlanadi. Toshkent davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Qarshi, Farg'ona, Andijon, Nukus filiallari hamda ayrim pedagogika universitetlarida sport yo'nalishlari faoliyat yuritmoqda. Biroq ayrim hududlarda sport sohasida malakali o'qituvchi va murabbiylar yetishmovchiligi saqlanib qolmoqda.

Mutaxassislar tahliliga ko'ra, bu holatning asosiy sabablari quyidagilardir:

- sport ta'limida amaliyot va nazariyaning uzviy bog'liqligi yetarli darajada ta'minlanmagan;
- murabbiylarning malaka oshirish tizimi zamon talablariga to'liq javob bermaydi;

- sport menejmenti, marketing va innovatsion texnologiyalar sohasida mutaxassislar kam tayyorlanmoqda;
- yosh kadrlarni ishga joylashtirish va ularning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq muammolar mavjud.

So'nggi yillarda qabul qilingan "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda, 2020 yil), Prezidentning PF-6013-sonli Farmoni hamda PQ-60-son qarori sport sohasini boshqarish, kadrlar tayyorlash, ularning mehnatini rag'batlantirishga qaratilgan.

Oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun:

- o'quv dasturlari xalqaro tajriba asosida yangilanmoqda;

- chet el universitetlari bilan qo'shma dasturlar yo'lga qo'yilgan;

- trenerlik va hakamlik sertifikat tizimi joriy etilmoqda;

- raqamli texnologiyalar asosida masofaviy malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda.

Hozirgi kunda quyidagi yo'nalishlarda tizimli ishlarni kuchaytirish zarur:

Ta'lim va amaliyot integratsiyasi — oliy o'quv yurtlari hamda sport maktablari o'rtasida qo'shma dasturlarni kengaytirish;

Kadrlar malakasini oshirish — xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlikda trenerlar uchun stajirovkalarni yo'lga qo'yish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish — sport fiziologiyasi, psixologiyasi, tibbiy nazorat bo'yicha ilmiy izlanishlarni kuchaytirish;

Sport menejmenti va marketingini rivojlantirish — sport sohasini iqtisodiy jihatdan barqaror qilish uchun zamonaviy boshqaruv kadrlarini tayyorlash.

O'zbekiston sport sohasi jadal rivojlanayotgan bir paytda, kadrlar tayyorlash tizimi ham zamon talablari darajasida bo'lishi lozim. Malakali, raqobatbardosh, innovatsion fikrlovchi sport mutaxassislari — bu sohaning barqaror rivoji va xalqaro maydonda mamlakat nufuzini oshirish kafolatidir. Shu bois jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar siyosatini takomillashtirish, ta'lim, ilm-fan va amaliyot integratsiyasini kuchaytirish O'zbekistonning sport sohasidagi eng muhim strategik vazifalaridan biridir.

O'zbekistonning jismoniy tarbiya va sport sohasi taraqqiyoti bevosita ushbu yo'nalishda faoliyat yuritadigan malakali kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligi bilan belgilanadi. Tarixiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, sport sohasida kadrlar siyosati turli davrlarda muayyan bosqichlarni bosib o'tgan bo'lib, har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy sharoitlari mazkur tizimning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Sovet davrida shakllangan markazlashgan model mustaqillikdan so'ng milliy manfaatlar, zamonaviy ta'lim talablari va xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda davlat tomonidan sport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, trenerlar, hakamlar, sport menejerlari hamda pedagog kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan kompleks islohotlar olib borilgani ushbu sohada sifat jihatidan yangi bosqichning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Biroq mehnat bozorida ehtiyojlar bilan ta'lim tizimi o'rtasida hali ham muayyan nomutanosibliklar mavjud bo'lib, bu esa kadrlar siyosatini yanada takomillashtirish, zamonaviy kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash jarayonini kuchaytirishni talab etadi.

**Xulosa.** Tahlillar ko'rsatadiki, sport sohasi uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda quyidagi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega: ta'lim jarayonining amaliyot bilan

integratsiyalashuvi, xalqaro tajriba va standartlarga mos o'quv dasturlarini joriy etish, trener va pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini tizimli ravishda rivojlantirish, sport menejmenti va sport psixologiyasi kabi yangi yo'nalishlarning kengaytirilishi. Shuningdek, sport sohasida ilmiy tadqiqotlar faolligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish ham kadrlar tayyorlash sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar masalasining tarixiy rivojlanishi

kompleks va dinamik jarayon bo'lib, uni chuqur tahlil qilish sohadagi mavjud muammolarni aniqlash hamda istiqboldagi rivojlanish strategiyalarini belgilash uchun muhim ilmiy asos yaratadi. Kelgusida kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga moslashtirish va sohada innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish O'zbekiston sport tizimining raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

#### ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6013-son Farmoni, 2020 yil.
2. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda), 2020 yil 23 sentabr.
3. Toshkent davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti o'quv-metodik qo'llanmalari, 2023 yil.
4. Karimov, B. (2022). Sport menejmenti va ta'lim integratsiyasi masalalari. – Toshkent: TDJTSU nashriyoti.
5. www.sportedu.uz – O'zbekiston sport ta'limi portali.
6. Платонов, В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте: общая теория и её практические приложения. — Киев: Олимпийская литература, 2004. — 808 с.
7. Матвеев, Л. П. Теория и методика физической культуры. — М.: Физкультура и спорт, 1991. — 543 с.
8. Нурматов, Н. Жисмоний тарбия назарияси ва методикаси. — Тошкент: O'kituvchi, 2018. — 284 б.
9. Эргашев, С. Спорт таълимида педагогик технологиялар. — Тошкент: Фан, 2015. — 210 б.
10. Rahmonqulov, M. O'zbekiston sport tizimi rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2021. — 192 b.
11. Bourdieu, P. Distinction: A Social Critique of the Judgement of Taste. — Cambridge: Harvard University Press, 1984. — 613 p.
12. Bloom, B. S. Taxonomy of Educational Objectives. — New York: Longman, 1956. — 207 p.



UDK:908

**Gulnara FARMANOVA,**  
*Farg'ona davlat universiteti, dotsenti, PhD*  
**Shukurullo ABDUG'ANIYEV,**  
*Farg'ona davlat universiteti magistranti*  
*E-mail: farmanova.gulya@gmail.com*

*FarDU professori M.Isamiddinov taqrizi asosida*

### FARG'ONA VODIYISI CHORVADOR JAMOALARI MADANIYATLARINI ARXEOTNOLOGIK O'RGANILISHI (QAYROQQUM MADANIYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada bronza davri Farg'ona vodiysi chorvador jamoalarining madaniyatlaridan bo'lgan Qayroqqum madaniyati haqida so'z yuritiladi. Qayroqqum madaniyati va uning yodgorliklarini arxeotnologik jihatdan o'rganish, asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga madaniyatning ko'mish marosimlari, ishlab chiqarish bilan ayniqsa, metallsozlik bilan bog'liq jarayonlari batafsil yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, Qayroqqum, B.A.Litviniskiy, tosh o'choq, chorvador, mozor-qo'rg'on, Tozabog'yob, bronza davri metallurgiyasi, ko'mish marosimi, antropologik tip.

### АРХЕОЭТНОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ КУЛЬТУР СКОТОВОДЧЕСКИХ СООБЩЕСТВ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ (НА ПРИМЕРЕ КАЙРАККУМСКОЙ КУЛЬТУРЫ)

Аннотация

В статье приводятся сведения о Кайраккумской культуре, которая является одной из культур скотоводческих сообществ Ферганской долины эпохи бронзы. Одной из основных целей исследования является археотнологическое изучение Кайраккумской культуры и ее памятников. При этом подробно освещаются погребальный обряд, производство и особенно металлургические процессы данной культуры.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, Кайраккум, Б.А. Литвинский, каменный очаг, пастух, курган, Тазабагыбская культура, металлургия бронзового века, погребальный обряд, антропологический тип.

### ARCHAEO-ETHNOLOGICAL STUDY OF THE CULTURES OF PASTORAL COMMUNITIES IN THE FERGANA VALLEY (A CASE STUDY OF THE QAYROQQUM CULTURE)

Annotation

The article talks about the Qairaqquq culture, which is one of the cultures of the herding communities of the Fergana Valley of the Bronze Age. One of the main goals is the archeo-ethnological study of Qayrakquq culture and its monuments. At the same time, the culture's burial rites, production, and especially metallurgical processes are covered in detail.

**Key words:** Fergana valley, Qairaqquq, B.A. Litvinisky, stone hearth, herdsman, burial mound, Tazabogyob, Bronze Age metallurgy, burial ceremony, anthropological type.

**Kirish.** Farg'ona vodiysi arxeologik madaniyatlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'pchilik qadimshunos olimlar buni vodiyning geografik holatini sabab qilib ko'rsatishadi. Ya'ni vodiya tog'larning mavjudligi, ulardan boshlanuvchi daryolarning aholi uchun dehqonchilik qilishda muhim ahamiyat kasb etganligi va shu sababdan o'troq hayot shakllanib, o'ziga xos sivilizatsiya yuzaga kelganligini kuzatishimiz mumkin. Ammo Farg'ona vodiysi qay darajada tog'lar bilan o'ralgan bo'lishidan qat'iy nazar tarixiy taraqqiyot bir maromda davom etganligi, vodiyning qadimgi aholisi boshqa hududdagi chorvadorlar hamda uzoq va yaqindagi dehqon jamoalari bilan keng miqyosdagi o'zaro aloqalarda bo'lganligi haqida ma'lumotlar ham yo'q emas.

Bronza davri ko'chmanchi madaniyat vakillarining bir qismi Qadimgi Farg'ona vodiysi hududlariga kirib kelishib, xo'jalik an'analari davom ettirib, bu yerda o'zlarining madaniyatlarini rivojlantiradilar. Qayroqqum madaniyati chorvador jamoalarning madaniyati hisoblanib, qadimgi Farg'ona vodiysi hududidagi muhim va o'ziga xos bo'lgan madaniyat sifatida qayd etiladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya** Farg'ona vodiysi cho'l va dasht qabilalarining madaniy xo'jalik faoliyatida chorvachilik dehqonchilikka nisbatan yuksak

rivojlangan. Ammo ular qadimgi Xorazmning Tozabog'yob jamoalari singari dehqonchilik masalasida sezilarli xo'jalik taraqqiyotiga ko'tarila bilmagan.

Bronza davri cho'l va dasht hududlari qabilalarining madaniyatini S.P.Tolstov va M.A.Itina Xorazmning "Tozabog'yob madaniyati" deb atasa, Farg'ona vodiysi yodgorliklarini B.A.Litviniskiy "Qayroqqum madaniyati" deb nomlaydi.

A.A.Asqarov Quyi Amudaryo cho'l va dasht hududi bronza davri yodgorliklarini Andronova madaniyatining "Tozabog'yob varianti" deb atashni taklif qiladi. O'rta Osiyo hududidagi qabilalarining madaniy merosi qanday nom bilan aytilishidan qat'iy nazar, materiallarining bir-biriga aynan o'xshashligi, xronologik bir davrga tegishli ekanligi masalasida ko'pchilik olimlar bir xil fikrda qolmoqdalar.

Ma'lumki, Farg'ona vodiysining bronza davri jamoalari sharqda Oltoy tog'laridan, janubda Pomir-Oloy va Tyanshan tog'larigacha bo'gan dasht hamda tog'oldi hududlarida chorva mollarini boqib yurgan chorvador qabilalar edi. Ularning kundalik turmushlarida ishlatiladigan eng qimmatli narsa bu bronzadan yasalgan buyumlar bo'lib, ular doimo bronza metalini hosil qilish uchun kerak bo'ladigan mis rudasini olish mumkin bo'lgan konlar, hamda

bronza yasash imkoniyatini bergan simob, rux, qalay, qo'rg'oshin konlarini qidirish bilan shug'ullanishgan. Chorvador aholi uchun metallurgiya bilan shug'ullanish nima sababdan yuqori darajadagi ehtiyojni keltirib chiqaradi. Buning asosiy sababi chorvador aholi o'tliq bo'lgan, qo'lida albatta xanjari bo'lgan. O'tliq, qo'lida quroli bo'lgan odamlar xohlagan tomonga yurishib kerakli mahsulotni bosib olib ketish imkoniyati katta bo'lgan.

Jamiyat rivojida, xo'jaliklarning kundalik ehtiyojlarini qondirishda, harbiy harakatlar davrida eng kerak bo'ladigan ashyo bu bronza metalini va umuman metallurgiyani paydo bo'lishidir. Bronza davri jamiyatlarining xarakterli belgisi shundan iboratki, bu davrda imkon qadar qurol-aslahalarni toshdan tayyorlashni kamaytirib, asosiy e'tibor bronzadan yasalgan qurollarni ko'paytirishga qaratilgan.

Shu tariqa metallurgiya markazlari vujudga keladi. Jumladan, Zarafshon daryosining bo'yidan topilgan To'qayli metallurgiya manzilgohi hamda Sirdaryo bo'yidagi Qayroqqum bronza metallurgiyasi manzilgohidir[1].

Aynan, ushbu hududlarda o'ziga xos ishlab chiqarish markazlari vujudga keladi. Bu yerlardan ishlab chiqarilgan buyumlar xo'jalikning rivojlanishiga olib keldi. B.A.Litvinskiy Qayroqqum madaniyati yodgorliklarini o'rganishda, ayniqsa, kulolchilik buyumlarini, qablardan chiqqan mis, bronza va temirdan yasalgan buyumlarni aniq klassifikatsiya qilish usullarini joriy qilgan arxeolog hisoblanadi.

B.A.Litvinskiyning Qayroqqum madaniyati bo'yicha yozgan asari masalani yoritishda katta ahamiyat kasb etdi. Aytgan qadimgi davrlarga oid arxeologik taxminlarga birinchi bor murojaat qildik.

Natija va Muhokama

Bronza davrining dehqon jamoalari bilan bu yerda chorvadorlar ham istiqomat qilgan bo'lib, ularning madaniyati fan olamida "qayroqqum madaniyati" andronova madaniyatining bir chekkasi ekanligi ma'lum. Ular qoldirgan moddiy madaniyatga aloqalarning naqadar mustahkam ekanligi ayniqsa ko'mish marosimlarida aks etgan[5]. Qayroqqum madaniyati chorvadorlaridan keyingi davr — eylaton davrida ham madaniyatlarning o'zaro bir xil ekanligini haqida ma'lumotlar mavjud. Ya'ni madaniyatning o'xshash ekanligini faqat Farg'ona vodiysigagina xos bo'lmasdan, balki butun boshli shimoliy-sharqiy hududlar, ya'ni saklar davri chorvadorlari yashagan hududlardagi madaniyat ham juda o'xshash bo'lgan.

Qadimgi Farg'onaning g'arbiy qismida, Qayroqqum suv ombori qurilishi munosabati bilan, XX asrning 50-yillari o'rtalaridan B.A. Litvinskiy rahbarligida keng ko'lamli arxeologik izlanishlar olib borildi. Natijada, 1954-1956-yillar davomida 60 dan ortiq joylarda bronza va ilk temir davri chorvador dasht qabilalarining manzilgohlari aniqlandi[3]. B.A.Litvinskiyning Qayroqqum madaniyatiga oid qator monografik planda amalga oshirilgan tadqiqotlari mavjud.

B.A.Litvinskiy Oqtangi g'orida olib borgan qazishmalarida Chust madaniyatini Andronova madaniyati bilan sinxron ekanligini aniqlaydi. Tosh o'choqlar va sopol parchalarining ko'pligi, bu yerdagi hayotning intensiv bo'lganligini ko'rsatadi. Bu kabi holatlar Qayroqqum kulolchilik buyumlarini tasniflashni va ayniqsa, aniq sanasini aniqlashni ancha murakkablashtiradi, nafaqat hal qilishga, balki ba'zi muhim savollarni ham ko'tarishga imkon bermaydi. Qayroqqum madaniyati o'choqlari tosh yoki loydan qurilganligini ko'rishimiz mumkin. Tosh o'choqlar taqir ustida, loy o'choqlar esa taqir o'yilib, chuqurcha devoriga tosh terilgan. Ularning yuqori devor qismi loydan yasalgan. Shuning uchun o'choqlarning (qo'ralarning) tosh qismi Qayroqqum makonlarida yaxshi saqlangan. Ularning shakllari doira yoki oval ko'rinishida bo'lgan. Tosh o'choqlar yerto'la ichida, loy o'choqlar esa yerto'la tashqarisiga qurilgan. Shu

sababdan bo'lsa kerak, loy o'choqlar tosh o'choqlar kabi bir joyda zanjirdek tizilmagan. Ular, odatda, makonlarda kam uchraydi. Qolaversa, o'choqlar maydoni bir xil emas. Loy o'choqlarning o'lchami kichik, tosh o'choqlarning maydoni esa ikki xil, kichiklarining diametri 0,6-1 bo'lsa, kattalariniki 1-2 m.g.a tengdir[3]. Qayroqqum aholisining tosh o'choqlardan samarali foydalanishi madaniyatning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarini ma'lum darajada saqlanishiga yordam beradi. Tosh o'choqlar loy o'choqlarga qaraganda, pishiq hamda foydalanishga birmuncha qulay bo'lgan. O'rganilishlar natijasida tosh o'choqlarning atroflarda ko'plab xo'jalik buyumlari topilgan.

Qayroqqum yodgorliklaridan topilgan topilmalar ichida soplil bronza pichoqlar alohida ajralib turadi. Bunday qurollar Namozgoh madaniyati inventarlarida ham uchraydi. Ko'p pichoqlarning tutqichida teshiklar mavjudligini ko'rishimiz mumkin[2]. Yuqorida aytganimizdek, Qayroqqum madaniyati Andronova madaniyatining bir chekkasi hisoblanadi. Shu sababdan andronova madaniyati tarqalishiga asos bo'lgan hozirgi Qozog'iston hududlarida yashagan jamoalar bilan, vodiydagi jamoalarning xo'jalik yuritish an'analari bir-biriga o'xshash bo'lgan.

Qayroqqum makonlarining 15 tasida ma'dan eritish hamda metall xomashyosidan mehnat va jangovor harbiy qurollar, uy-ro'zg'or hamda xo'jalik asboblari ishlab chiqarish bilan bog'liq ustaxonalar topilganligi haqidagi ma'lumotlar ilmiy adabiyotlarda uchraydi. Agar dasht qabilalarining xo'jaligida chorvadan keyingi ikkinchi o'rinda metallsozlik turishini hisobga oladigan bo'lsak, Andronova urug' jamoalarining katta guruhini g'arbiy Farg'onaga, Qayroqqum massiviga kelib joylashishi bejiz emas edi. Chunki, bu yerdagi Qoramozor tog' tizmalari turli xil ma'danga boy konlari bilan ko'chmanchi dashtliklar e'tiborini o'ziga qaratgan. Ayniqsa, Novqat mis konlari Qayroqqum metallurgilarini metall xomashyosi bilan ta'minlab turgan[7]. Haydarkon simob koni ham Qayroqqum madaniyati aholisining asosiy ishlab chiqarish xomashyo manbalaridan biri sifatida ko'riladi. Metallsozlikning rivojlanishi, boshqa madaniyatlar bilan aloqa almashishga hamda savdo-sotiqning jadal taraqqiy etishiga olib keldi. Natijada, aholining moddiy ahvoli ma'lum darajada yaxshilandi. Aholining yashash sharoiti bir maromga kelib, xo'jalik yuritish an'analari ham o'zgardi, deb aytish mumkin.

Madaniyat aholisining uylari asosan toshdan tashkil topgan. Turar joylar katta hisoblanib, uzunligi 20 m gacha, kengligi esa 12-15 m gacha bo'lgan. Tog'li hududlardagi g'orlar ba'zan turar joy vazifasini o'tagan[2]. Qayroqqum madaniyati yodgorliklarida yuqoridagi topilmalarning ko'plab topilishi turar-joy makonlari doimiy, ya'ni ko'p yillar mobaynida ishlatilgan manzilgohlardan iborat ekanligidan dalolat beradi.

Chorvachilikda hayvonlarning tarkibi turlicha bo'lib, poda, asosan, andronovaliklarga o'xshab yirik va mayda shoxli hayvonlardan iborat bo'lgan. Chorvada ot muhim o'rin egallab, transport vazifasini bajargan[4]. Chorvachilik Qayroqqum madaniyatining asosiy xo'jaliklaridan biri sanaladi. Chunki aholining deyarli hammasi qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanib kelgan. Qolaversa, joylashgan hudud ham chorvachilik uchun nihoyatda qulay edi. Asosiy transport vositasi esa ot hisoblangan. Ot ov jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etgan. O'ljaning ko'p miqdorda bo'lishiga ham otning hissasi katta bo'lgan. O'z navbatida qayroqqumliklar ot ustida harakatlanishda ancha tajribali edilar. Bu kabi omillar ovchilik va chorvachilikning rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Sopol idishlar Tozabog'yob sopollariga o'xshasada, Qayroqqum sopollari ichida quloqli, ba'zan esa tarnov jo'mrakli xillari ham uchraydi. Sopol topilmalarining o'ndan bir qismi chizma, taroq iz bilan naqshlangan. Idish gullari o'z xarakteri bilan geometrik kompozitsiyalardan iborat.

Qayroqqum madaniyatida metallurgiya hunarmandchiligining yuksak darajada bo'lganligini arxeologik topilmalar tasdiqlaydi. Ko'pgina makonlar ustida olib borilgan qazishmalar paytida oybolta va cho'kich yasaladigan tosh yashiklar, ma'dan parchalari, shlaklar va ko'pgina bronza predmetlari topilgan[3]. Qayroqqum madaniyati sopollariga o'ziga xos naqshlar tasviri tushirilgan. Sopol idishlarning shakllari esa qorin tomoni kengroq, og'iz qismi ham birmuncha kattaroq qilib tayyorlangan. Idishlarning rangi esa qizil angob bilan bo'yalgan. Ba'zilarida taroq izi tasviri tushirilgan. Ba'zilarida esa yarim yotgan chiziqning uzun holatini ko'rishimiz mumkin. Bu haqda mazkur tadqiqotimiz so'ngida Qayroqqum madaniyati yodgorliklaridan arxeologik qazishma jarayonida chiqqan sopol idishlarning majmuasi bilan tanishamiz.

Yuqorida aytib o'tilgandek, mil. avv. 2-mingyillikning ikkinchi yarimida Farg'ona vodiysidan Zarafshon vohasigacha bo'lgan katta hududda Qayroqqum madaniyati shakllandi. Bu madaniyatga mansub makon va qabrlardan topilgan moddiy buyumlar, bu hududdagi qabilalar chorvachilik bilan shug'ullanganligini, konchilik hamda metallurgiya rivojlanganligini dalillay oladi[3]. Moddiy topilmalar tahlili, bir tomondan, bu madaniyatning mintaqa dasht hududlaridagi Andronova va Xorazm vohasidagi Tozabog'yob madaniyati bilan, ikkinchi tomondan, Farg'onadagi Chust va O'rta Osiyo janubidagi o'troq dehqonlar madaniyati bilan aloqalaridan dalolat beradi.

Ko'mish marosimi bu o'lgan odamni joyiga qo'yish maqsadida amalga oshiriladigan diniy amal hisoblanadi. Qayroqqum madaniyati jamoalarining ko'mish marosimlariga qaraydigan bo'lsak, bir qancha holatlarga guvoh bo'lamiz. Ko'mish marosimining natijasi ko'mish bilan bog'liq kompleks — ko'mish inshootlari, ko'milgan odamni qoldiqlari, inventarlar va qo'shimcha strukturalardan iborat bo'lgan qayroqqum madaniyati jamoalari uchun mozar-qo'rg'on tipi xarakterlidir. Ko'p hollarda bolalarni ko'mish uchun alohida qabristonga olib chiqishgan. Qayroqqum madaniyat jamoalarining ikki xil ko'mish marosimi bo'lgan: biri "ingumatsiya" bo'lsa, ikkinchisi "krematsiya" hisoblanadi. Qayroqqum madaniyatida ko'mish marosimi bilan bog'liq qurilmalar doira shaklida bo'lib, ularning diametri 12-16 m iborat bo'lgan. Tosh qurilmalarning markaziy qismida bitta-

ikkita qabr chuquri, doiraning cheti bo'lab bolalar va kattalarni qabrlari qo'yilgan[8]. Har bitta shunday qurilma bitta yoki bir nechta oilaga tegishli bo'lgan bo'lishi mumkin degan fikrdamiz. Chunki, qurilmadagi holatlardan shuni ko'rsatadiki, bir vazifani bajaruvchi buyumlarning soni haddan ziyod ko'pdir. Qayroqqum madaniyati aholisi qabrlarning yorma, katakomba turlaridan foydalanishgan.

Dahana va Qayroqqum mozar-qo'rg'onlaridan topilgan skeletlar yonboshlatib, oyoqlarini yig'ishtirgan holda qabrga qo'yilgan. Qabrlarning tag qismlarida tosh yashiklar yasalgan bo'lib, o'lik shuning ichiga qo'yilar edi. Bu qabrlardan va manzilgohlardan topilgan sopollar Xorazmdagi Tozabog'yob, Toshkent vohasidagi yodgorliklar hamda Zarafshon vohasidagi mozar-qo'rg'onlardan topilgan yodgorliklarga juda ham o'xshash edi[9]. Bu holat madaniyatlardagi jamoalarning mustahkam aloqalaridan dalolat beradi. Shu bilan birga Qayroqqum madaniyati Markaziy Osiyoning butun shimoli-sharqiy hududlarida keng tarqalgan chorvador madaniyatlar bilan ishlab chiqarish shakli juda ham o'xshash edi.

Qayroqqum madaniyatidagi dafn marosimi jarayoni Farg'ona vodiysidagi o'troq dehqonchilik madaniyati hisoblanmish Chust madaniyatiga juda ham o'xshashligini ko'rishimiz mumkin. Chust madaniyati mozar-qo'rg'onlarida odamlar ona qornida yotganidek oyoq qo'llari bukilgan holda yon biqini bilan ko'milgan. Farg'ona vodiysidagi mozar-qo'rg'onlarida erkaklar asosan o'ng tomoni bilan, ayollar esa chap tomoni bilan dafn etilganligini ko'rishimiz mumkin. [6] Madaniyat aholisining antropologik tipi andronova tipida bo'lganligini antropologik materiallar ko'rsatadi. Ya'ni baland bo'lyli, uzun boshli, yuzlari keng va past bo'lganligi adabiyotlarda uchraydi.

**Xulosa.** Qayroqqumliklarning asosiy xo'jaligi metalsozlik bo'lganligi uchun ularning joylashgan o'rni ham mis, simob, surma kabi minerallarga boy bo'lgan hududga o'rnatilganliklari aniq. Bu holatni chuqurroq o'rganish shuni ko'rsatadiki, metalsozlar o'z ishlarini amalga oshirishda albatta chust madaniyati bobodehqonlari bilan hamkorlikda amalga oshirganlar. Bunga chust madaniyati jamoalarining ko'mish marosimlari bilan andronova madaniyatining ko'mish marosimlarini ayrim hollarda o'xshashligi guvohlik beradi.



#### ADABIYOTLAR

1. Аванесова Н.А. Новое о проникновении пастушеских племен бронзового века в земледельческие оазисы на юге Узбекистана. В сб. Изучение культурных взаимодействий и новые археологические открытия. Материалы пленума ИИМК 11-14 апреля 1995 г. СПб. 1995, с. 82-86.
2. Аванесова Н.А. Археология Средней Азии: энеолит и бронзовый век. Учебник. — Самарканд: Издательство Shabnam omad nuz, 2020. С—274.
3. Литвинский Б.А., Окладников А.П. Ранов В.А. Древности Кайрак-Кумов Душанбе — 1962. — 417 с.
4. Литвинский Б.А. Бронзовый и раннежелезный век, в книге Гулямова Э и другие. Археологические и этнографические коллекции Музей Института истории, археологии и этнографии АН Таджикской ССР. — Душанбе, 1956.
5. Литвинский Б.А. История и культура восточной части Средней Азии от поздней бронзы до раннего средневековья: (в свете раскопок памиро-ферганских могильников): Автореф. дисс. ...д-ра ист. наук. — М.: 1969.
6. Asqarov A.A. O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi. — T.: 2016. — 700 bet.
7. Мавлонов Ў.М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари: шаклланиши ва ривожланиш босқичлари. Монография. - Тошкент: Фан, - 2016. — 457 бет.
8. Tarixiy rekonstruksiya masalalari. Darslik. O'quv-uslubiy nashr / M.H.Isomiddinov. - Farg'ona, 2023. - 190 bet.
9. Tarix fanalari doktori, professor M.H.Isomiddinovning 70 yilligiga bag'ishlangan "Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda" mavzusidagi IV ilmiy-nazariy konfrensiya materiallari. Farg'ona shahri, 2017 yil 25 may. — Farg'ona, 2017. — 306 bet.



YŷK: 94:336.22(575.1)

*Zumradxon XATAMOVA,*  
*O'rita Osiyo xalqaro tibbiyot universiteti – CAMU dotsenti*  
*E-mail: zumrad.hatamova@mail.ru*

*Farg'ona texnika universiteti dotsenti I.Rustamov taqrizi asosida*

### QO'QON XONLIGIDA HARBIY TUZILMANING MOLIVAVIY TA'MINOTI

Аннотация

Ushbu maqolada Qo'qon xonligida davlat apparati va harbiy tuzilmalarning moliyaviy ta'minotiga aloqador jihatlari tahlil qilingan. Harbiy va ma'muriy tuzilmalarning samarali faoliyati davlat moliyasiga bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi. Davlat xazinasiga orqali ma'muriyat va qo'shinlar oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslah va maosh bilan ta'minlangan, bu esa ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni saqlashga xizmat qilgan.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, davlat moliyasi, harbiy tuzilma, harbiy xarajatlar, xazina, moliyaviy ta'minot, qurolsozlik, harbiy ustaxonalar.

### ФИНАНСОВОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ ВОЕННОЙ СТРУКТУРЫ В ХОКАНДСКОМ ХАНСТВЕ

Аннотация

В данной статье проанализированы аспекты финансового обеспечения государственного аппарата и военных структур в Хокандском ханстве. Подчеркивается, что эффективная деятельность военных и административных структур напрямую зависела от государственных финансов. Через государственную казну администрация и войска обеспечивались продовольствием, одеждой, оружием и жалованием, что способствовало поддержанию социальной и политической стабильности.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, государственные финансы, военная структура, военные расходы, казна, финансовое обеспечение, оружейное производство, военные мастерские.

### FINANCIAL SUPPORT OF THE MILITARY STRUCTURE IN THE KOKAND KHANATE

Annotation

This article analyzes aspects of the financial support of the state apparatus and military structures in the Kokand Khanate. It is emphasized that the effective functioning of military and administrative structures was directly dependent on state finances. Through the state treasury, the administration and the troops were provided with food, clothing, weapons, and salaries, which contributed to maintaining social and political stability.

**Key words:** Kokand Khanate, state finances, military structure, military expenditures, treasury, financial support, weapons manufacturing, military workshops.

**Kirish.** Qo'qon xonligida davlat apparati va harbiy tuzilmalarning samarali faoliyati bevosita moliyaviy ta'minotga bog'liq bo'lgan. Xonlik moliya tizimi orqali ma'muriyat va qo'shinlar oziq-ovqat, kiyim-kechak, qurol-aslah, maosh va boshqa zarur resurslar bilan ta'minlangan. Moliyaviy ta'minotning mavjudligi harbiy va ma'muriy tuzilmalarning barqaror ishlashini, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni saqlashni kafolatlagan. Shu bois, Qo'qon xonligida davlat va harbiy moliya tizimi o'zaro bog'liq va uzviy tizim sifatida rivojlangan, bu esa davlat xavfsizligi va hududiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb qilgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qo'qon xonligi irrigatsiyasi yoki suv muammolariga bag'ishlangan alohida tadqiqot o'tkazilmagan bo'lsada H.Bobobekov[2.1.], V.Ishquvvatov[3.1.], Z.Ilhomov[4.1.], O'.Sultonov[5.1.], T.Xudoyqulov[6.1.], B.Babadjanov[7.1.], Z.Xatamova [8.1.]kabi tadqiqotchilarning asar va maqolalarida masalaning ayrim jihatlari ta'xtab o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Qo'qon xonligida davlat apparati va harbiy tuzilmalarning samarali faoliyati bevosita davlat moliyasiga bog'liq bo'lgan. Davlat moliyasi ularning barqaror va samarali ishlashini ta'minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Moliyaviy ta'minotsiz davlat apparati va harbiy tuzilmalar o'z vazifalarini to'liq bajarolmaydi, bu esa ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bilan birga, davlat apparati va harbiy

tuzilmalarning samarali faoliyati o'z navbatida ijtimoiy va siyosiy muhitning barqarorligiga xizmat qiladi. Ya'ni, ularning samarali ishlashi va barqaror moliyaviy ta'minot ijtimoiy muvozanatni saqlash, xavfsizlikni ta'minlash va qonun ustuvorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Boshqa jihatdan qaraganda, davlat moliyasi yordami orqali barqaror moliyaviy ta'minot yaratilganda, davlat apparati va harbiy tuzilmalar o'z vazifalarini to'liq bajarishi mumkin bo'lib, bu qator ijtimoiy va siyosiy natijalarga olib keladi. Masalan, faoliyati barqaror harbiy tuzilma hududiy xavfsizlikni ta'minlaydi, davlat organlari esa aholiga xizmat ko'rsatish va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni saqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu tariqa, Qo'qon xonligida davlat apparati va harbiy tuzilmalarning moliyaviy ta'minoti va ularning samarali faoliyati o'zaro bog'liq tizim sifatida amal qilgan, bu esa ijtimoiy va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lgan.

Xonlik hukumati ma'muriyat va harbiy xizmatchilarga muntazam maosh, saroy xarajatlari va harbiy faoliyat uchun zarur resurslar ajratgan. Shu bilan birga, g'azna tushumlari va soliqlardan olingan mablag'lar to'g'ri taqsimlanmasa, davlat apparatining samaradorligi va harbiy qudrati pasayishi mumkin edi. Shu bois, Qo'qon xonligida davlat va harbiy moliya tizimining tashkil etilishi, ularning moliyaviy manbalari va xarajatlarini nazorat qilish mexanizmlari tarixiy ahamiyatga ega.

Qo'qon xonligida qo'shin ta'minoti va uning turli usullari mavjud bo'lgan. Jahon davlatchilik tajribasida harbiy kuchning mavjudligi davlat mustaqilligi va xavfsizligini ta'minlashning asosiy shartlaridan biri sifatida qaralgan. Qo'qon xonligi ham bu nuqtai nazardan mustasno emas. Xonlik hududiy kengayish jarayonlarida va ichki barqarorlikni saqlashda doimiy ravishda qo'shin saqlashga muhtoj bo'lgan. Qo'shinlarning moddiy ta'minoti davlat byudjeti va maxsus ajratmalar orqali moliyalashtirilgan.

Qo'qon xonligida qo'shin ta'minoti quyidagi asosiy usullar orqali amalga oshirilgan:

Markaziy xazinadan ajratmalar – "Baytulmol"dan harbiy ehtiyojlar uchun mablag'lar ajratilgan.

Vaqf muassasalarining qo'llovi – ayrim harbiy qismlar vaqf yerlari daromadi hisobidan ta'minot olgan.

Mahalliy amaldorlar va amlodkorlar hissasi – hududiy zobitlar va amlodkorlar o'z qaramog'idagi qo'shinlar ehtiyojini qoplashda qatnashgan.

Ulusboshlik tizimi – aholiden olinadigan ulpon, ya'ni ma'lum bir qishloq yoki mahalladagi xonadonlar birgalikda muayyan miqdordagi askarni boqish majburiyatini olgan.

**Tahlil va natijalar.** Harbiy xarajatlar xonlik moliya tizimida doimiy ravishda va eng ko'p amaliyot bajarilgan moliyaviy quvvat hisoblangan. Masalan, Olimxon hukmronligi davrida (1798–1810) qo'shin soni 25–30 ming atrofida bo'lgani va harbiy yurishlar mavsumida xarajatlar keskin ortib ketgani tarixiy manbalarda qayd etilgan. Qo'shinlarga oziq-ovqat, kiyim-kechak, otlar, qurol-aslaha, tuzuklar, maosh va uy-joy bilan ta'minlash ishlari katta moliyaviy mas'uliyat talab qilgan.

R.Nabievning qayd etishicha, bir otliq askarni bir yillik ta'minotiga taxminan 25–30 tanga kerak bo'lgan. Shu dalilga tayanib, agar urushda o'n ming askar qatnashsa yoki qo'shinda shu miqdordagi askarlar mavjud bo'lsa, ularga ajratiladigan umumiy xarajat 250–300 ming tangani tashkil etgan bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pincha urush bo'lmagan vaqtlarda ko'p sonlik askarlarga dam berilgan. Favqulodda yoki urush holatlarida ularni qayta chaqirib olingan. Saroy yoki bek o'rdalarida ham muntazam qo'shin saqlanmagan. Kam sonli askarlar va soqchilar yordamida xon va uning oilasi xavfsizligi ta'minlanib turgan.

Xonlik hududlarining kengayib borishi soliq yig'ish nuqtai nazaridan daromad olib kelgan. Ammo bu kengayish harbiy sarf-xarajat evaziga amalga oshirilgan. Bu xarajatlarning asosiy qismi markaziy moliya tizimidan, qolgan qismi esa mahalliy resurslar va vaqflar hissasiga to'g'ri kelgan.

Qo'qon xonligida harbiy ta'minot va qurolsozlik xarajatlarining moliyaviy asoslari. Olimxon (1798–1810), Umarxon (1810–1822) va Madalixon (1822–1842) hukmronlik qilgan davrlarda Qo'qon xonligi hududiy jihatdan sezilarli darajada kengaydi. Bu jarayon, davlat xavfsizligini ta'minlash uchun keng ko'lamda doimiy harbiy kuchga ega bo'lishni talab qildi. Qo'shin sonining ko'payishi va harbiy harakatlar faollashuvi davlat moliya tizimida maxsus xarajat yo'nalishlari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Harbiy ta'minot — xonlikdagi qo'shinlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-yaroqlar bilan ta'minlashdan tashqari maosh masalasini ham qoplashdan iborat bo'lgan.

Arxiv hujjatlari, mahalliy tarixchilar asarlari va rus sayohatchilari qaydlariga ko'ra, Qo'qon xonlari qurolsozlik sohasiga alohida e'tibor qaratishgan:

Xonlikning markaziy shaharlarida miltiq va to'plar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan maxsus ustaxonalar mavjud bo'lgan.

Bu ustaxonalarda mahalliy hunarmandlar faoliyat yuritgan, ularning mehnati xonlik tomonidan moliyalashtirilgan. Turli metallarni rihtaglar eritib ma'lum qolipga quyishar va zaruriy qurollarni (mehnat yoki jang)

tayyorlashar edi. Qo'qon shahridagi Hakim To'ra madrasasi Rihtagarlik guzarida joylashganligi haqidagi ma'lumotdan rihtagarlik hunari xonlikda keng tarqalganligini bilish mumkin. Jumladan, Qo'qon shahrida uyda ish qiluvchilar hamda rastadagi mayda do'konlarni hisobga olmaganda, olti yirik rihtagarlik korxonasi faoliyat ko'rsatgan. O'zMA hujjatlarida Usta Sotiboldi Kimsanboy Rihtagor o'g'li, Shamsiddin Rihtagor Fatxiddin o'g'li, Usta Miryoqub Mirkomil o'g'li kabi rihtagor ustalar nomlari uchradi.

Qo'shinlarni qurollantirish uchun zarur bo'lgan temir, olov qurollari va moslamalar ichki ishlab chiqarish orqali ta'minlangan, ba'zi hollarda Buxoro, Xitoy va Hindistondan import qilingan.

Qo'qon xonligining Qo'qon, Toshkent, Marg'ilon, Andijon kabi yirik shaharlarida to'brezlik ustaxonalari ham mavjud bo'lgan. To'brezlikning boshqa hunarlardan farqi shundaki, to'plar xususiy hunarmandchilik ustaxonalarida emas, balki davlat korxonalarida quyilgan. Ya'ni, moliyaviy ta'minoti xazina tomonidan amalga oshirilgan. O'zMA hujjatlarida to'p quyish ishi, to'p quyish ustaxonasi, ustalar, ustaxona va ustalar ta'minoti masalalariga oid ma'lumotlar ko'p uchradi. Ustaboshi Sirojiddin To'brez, Eshon Sayyid To'brez, Usta Shamsiddin To'brez, Usta Namoz Zamonboy o'g'li, Usta Xoliqberdi To'brez, Usta Usmon To'brez, Usta Sohbnazar Qori kabi to'brezlarning nomi shu hujjatlarda qayd etilgan.

Xonlikda o'q-yoy ishlab chiqarish ovchilik bilan birga harbiy soha uchun zarur bo'lgan. Fazliy Namangoniyning "Umarnoma" asarida kamongar Yahyo xoja nomi zikr etilishi bilan birga Qo'qon xoni bo'lgan Muhammad Alixonning mohir kamongar bo'lgani eslatilgan.

Qo'qon xonligida qurol-yaroq va harbiy anjomlar — miltiq, to'p va zarur asbob-uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan ustaxonalar xarajatlarini, ustalarining ta'minoti, ya'ni oziq-ovqati, kiyimi va maoshi xon xazinasi tomonidan moliyalashtirilgan. Markaziy hokimiyat qurol-aslaha ishlab chiqaruvchi ustaxonalarining xomashyo ehtiyojini doimiy ravishda ta'minlashga harakat qilgan. Arxiv manbalaridan ma'lum bo'lishicha, bu ustaxonalar xonlik xazinasi tomonidan po'lat, zala (mis aralashma) kabi boshqa materiallar bilan ta'minlangan. Bu holat davlat tomonidan harbiy salohiyatni mustahkamlash maqsadida ustaxonalarning samarali faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun doimiy mablag' ajratilganini ko'rsatadi.

1865 yilda Sulton Murodbekning Baxti Muhammad qurbo'shiga bergan farmonida, to'pxonadagi ustalar uchun zarur bo'lgan tog'ora, sandiq, rus mixlari berilishi buyurilgan. Yadro quyuvchi ustalar uchun belkurak berilishi, o'q-dori olib yurishda foydalaniladigan xurjun (sumka)larni tayyorlovchi ustalariga hayvon terisi berish buyurilgan.

1870 yilga oid arxiv hujjatlarining birida esa Otaqulbek Bahodir ibn Ahmad ismli mingboshining miltiqsoz ustalar uchun bir haftalik choy, paxta yog'i, sabzi, piyoz hamda maosh berishni so'rab yozgan eslatmasi pattasi buyurilgan qayd etilgan.

Hujjatlarga ko'ra, ba'zi hollarda mustahkamlangan qal'alar atrofida askarlar uchun kulbalar qurilgan. Oilali askarlarga uylariga yaqin joylardan kichik yer maydonlari ham ajratilgan. Ular bu yerlarga ishlov berib, dehqonchilik orqali o'z ehtiyojlarini qisman qondirib turishgan.

Harbiy moliyalashtirishning yana bir dalili sifatida, Sulton Murodbekning soliq yig'uvchisi Amin sarkorga Oloy qal'asi ehtiyojlarini uchun olti chorak guruch berish buyrug'ini ko'rsatish mumkin. Bu eslatma pattaning olib boruvchisi uchun alohida mas'ullik yuklatilgan bo'lib, hujjatda bunga doir ko'rsatmalar berilgan.

**Xulosa va takliflar.** Qo'qon xonligi moliya tizimi va uning davlat apparati hamda harbiy tuzilmalarning faoliyatidagi o'rni tarixiy jarayonlar davomida muhim

ahamiyat kasb etgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xonlikning siyosiy barqarorligi, hududiy kengayishi va davlat boshqaruvidagi izchillik bevosita moliyaviy resurslarning to'g'ri taqsimlanishi va samarali boshqaruviga bog'liq bo'lgan. Harbiy xarajatlar xazina mablag'larining eng katta qismini tashkil etgan bo'lib, qo'shinlarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, maosh, qurol-yaroq va boshqa anjomlar bilan ta'minlanishi davlatning moliyaviy barqarorligiga tayanib amalga oshirilgan.

Arxiv manbalari, tarixiy asarlar va guvohliklar xonlikda harbiy ta'minotning markaziy xazina, vaqf daromadlari, mahalliy manba va ulusboshlik tizimi orqali moliyalashtirilganini ko'rsatadi. Shuningdek, qurolsozlik ustaxonalari, to'p quyish ishlab chiqarish markazlari va hunarmandchilik tarmoqlarining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangani xonlikning harbiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qilgan. Bu esa Qo'qon xonligi o'z davrida mintaqaning yetakchi siyosiy kuchlaridan biri bo'lishiga zamin yaratgan.

#### ADABIYOTLAR

1. Bobobekov H. N. Qo'qon tarixi. – Toshkent: Fan, 1996. – 239 b.;
2. Ishkuvatov V. XX asrning II yarmi tarixshunosligida Qo'qon Rossiya diplomatik munosabatlari. Tarix fan. nomz... diss... – Toshkent, 2003. – 152 b.;
3. Ilxomov Z. Aliquli Amirlashkar va uning Qo'qon xonligi siyosiy tarixida tutgan o'rni. Tarix fan. nomz... diss. – Toshkent, 2004. – 160 b.;
4. Sultonov O'. Muhammad Solihxojaning "Tarihi jadidayi Toshkand" asari muhim tarixiy manba sifatida (XIX asr). Tarix fan.nomz... diss. – Toshkent, 2007. – 157 b.; O'sha muallif. Muhammad Solihxoja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2009. – 269 b.;
5. Худойқулов Т. XIX асрда Қўқон хонлигининг ижтимоий сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан.номз... дисс. – Тошкент, 2009. – 151 б.;
6. Бабаджанов Б.М. Кокандское ханство: власть, политика, религия. – Токио-Ташкент, 2010. 743 с.;
7. Хатамова З.Н. Қўқон хонлигида солиқ тизими тарихдан, архив ҳужжатлари асосида. // Водийнома. – Андижон, 2020. № 3. 78-85 бетлар. (07.00.00. № 27);



UDK:930.1

**Akmaljon XOLDAROV,**  
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti  
E-mail: [aaxoldarov95@gmail.com](mailto:aaxoldarov95@gmail.com)

NamDTU dotsenti B.Isxaqov taqrizi asosida

## GERMANIYA ARABSHUNOSLIK MAKTABI TARIXIGA DOIR ILMIY TADQIQOTLAR VA ULARNING TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Germaniya arabshunoslik maktabining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va ilmiy tadqiqotlarining tarixiy asoslari keng yoritiladi. Sharqshunoslikning qadimgi davrlardan boshlab Yevropada shakllanishi, arab ilm-fani va tarjima maktablarining G'arb ilmiy tafakkuriga ta'siri, xususan Toledo tarjima maktabining o'rni ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. **Kalit so'zlar:** Sharqshunoslik, arabshunoslik, Germaniya arabshunoslik maktabi, Toledo maktabi, tarjima harakati.

## SCIENTIFIC RESEARCH ON THE HISTORY OF THE GERMAN SCHOOL OF ARABIC STUDIES AND ITS ANALYSIS

Annotation

This article explores the formation and development of the German school of Arab studies, highlighting its historical foundations and scientific contributions. It examines the early stages of Oriental studies in Europe, the influence of Arabic sciences, and the role of translation centers, particularly the Toledo School, in shaping Western intellectual traditions.

**Key words:** Oriental studies, Arab studies, German Arab studies school, Toledo School, translation movement.

## НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПО ИСТОРИИ ГЕРМАНСКОЙ АРАБИСТИЧЕСКОЙ ШКОЛЫ И ИХ АНАЛИЗ

Аннотация

В данной статье рассмотрены процесс формирования и этапы развития немецкой школы арабоведения. Подробно анализируются ранние стадии востоковедения в Европе, влияние арабской науки на западную интеллектуальную традицию и роль переводческих центров, особенно Толедской школы.

**Ключевые слова:** Востоковедение, арабоведение, немецкая школа арабоведения, Толедская школа, переводческое движение.

**Kirish.** “Sharqshunoslik” (arab. *قارشتسالا*, fr. orientalisme, ingl. orientalism) lug'aviy ma'noda "sharqni o'rganish" yoki "sharqqa oid bilimlarni tadqiq etish" degan ma'noni anglatadi. Sharqshunoslikning birinchi davrlari – yunon va rim davrida boshlangan. Qadimgi davrlardan boshlab, Sharq tushunchasi geosiyosiy, madaniy, iqtisodiy, va diniy ma'nolarni o'z ichiga olgan.

Qadimgi Yunonlar va Rimliklar Sharqni boshqacha dunyo sifatida ko'rganlar, uni ekzotik va sirlil joy sifatida tasvirlashgan. Yunon mualliflari, xususan, Gerodot o'zining “Tarix” asarining I kitobida Forslar hayoti, turmush tarzi, madaniyati haqida ma'lumotlar keltirib o'tsa, III kitobida Ahamoniylar imperiyasining tuzilishi, harbiy qudrati haqida ma'lumotlar beradi. Yunonlarning Sharq haqida o'zlariga xos tasavvurlarini, forslar, misrliklar va hindlar bilan aloqador bo'lgan tarixiy voqealarini Ksenofont o'zining "Anabasis" asarida keltirib o'tadi. Asarda Fors shohi va uning lashkarboshi Kirus, shuningdek, Fors imperiyasi va Sharqning boshqa tomonlariga oid tasvirlar keltiriladi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Sharqning boy madaniyati, san'ati va adabiyoti doim G'arbnining qiziqishini uyg'otgan va “Sharq mo'jizalari” iborasi bilan mashhur bo'lgan. Sharq ayniqsa Yunon davlati madaniy hayotiga ta'sir qilgan, chunki Sharq bilan savdo-sotiq va madaniy aloqalar olib borgan. Sharqda rivojlangan ilmiy an'analar, xususan matematika, astronomiya va tibbiyot madaniy va ilmiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Rim imperiyasi o'zining kengayishi davomida Sharqdagi forslar va boshqa mintaqalar bilan aloqa o'rnatgan. Rimliklar Sharqni harbiy kuch, boylik va madaniyatning manbai sifatida ko'rgan. Sharqqa bo'lgan qiziqish Rim madaniyatida ham aks etib, unga madaniy va iqtisodiy qimmat

bergan. Qadimgi Rim tarixchisi Titus Liviy o'zining “Ab urbe condita” asarida Rimning Sharq xalqlari bilan bo'lgan urushlari va ular bilan tuzilgan bitimlar haqida ma'lumotlar beradi. U xususan, Rim imperiyasining Sharq davlatlariga nisbatan olib borgan siyosati haqida so'z yuritadi va sharqliklarning jangovar madaniyati, diniy va axloqiy qadriyatlarini tasvirlab beradi. Tatsit "Annales" va "Historiae" asarlarida Parfiya va boshqa Sharq xalqlari haqida ko'p ma'lumot beradi. Tatsit sharqliklarni jasoratli va milliy qadriyatlariga sodiq xalq sifatida tasvirlaydi.

**Asosiy qism.** Misr va Mesopotamiya qadimiy tamaddunlaridagi arxeologik izlanishlar orqali Sharq tushunchasi kengaygan. Bu hududlardagi diniy va madaniy tizimlar, yozuvlar, jumladan, gil yozuvlar va ieroglif yozuvlari orqali qadimgi tarix fani boyigan. Bu davrda sharq xalqlarining urf-odatlarini, diniy e'tiqodlarini va tarixiy hodisalari haqida ko'p ma'lumot to'plangan. Yunon-makedon qo'shinlarining sharqiy davlatlarga bosqinchilik yurishlari ham hududlardagi fan va madaniyatni Yunonistonga olib kelinishida muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, Aleksandr Makeodonskiyning Mesopotamiya, O'rta Osiyo va Hindistondagi g'alabalari yunonlarning Sharq bilan tanishuvi va o'zaro bilim almashinuvini yanada kuchaytirdi.

O'rta asrlarning ilk davrida "sharqshunoslik" tushunchasi hali hozirgi ilmiy ma'nosida shakllanmagan edi, lekin turli o'lkalarda va madaniy markazlarda Sharq madaniyati, tili, san'ati va diniy bilimlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish paydo bo'la boshladi.

Vizantiya tarixchisi Prokopiusning “Gizli tarix” asarida Vizantiya hukmdorlari va Sharq davlatlari hukmdorlari o'rtasidagi diplomatik va harbiy aloqalar haqida tafsilotlar mavjud. Imperatori Yustinian I davrida yashagan Menandr

Protector esa: Vizantiyaning Sharq bilan aloqalarini, xususan, turkiy qabilalar bilan aloqalarni yoritib bergan. VII asrda yashagan Teofilakt Simocatta esa Vizantiya va Eron o'rtasidagi aloqalar haqida ma'lumotlar beradi. Shuningdek, Vizantiya davlat arxivlarida ham Eron bilan aloqalariga doir xujjatlar saqlanib qolgan.

**Natijalar va muhokama.** Milodiy VI–IX -aslarda arab-islom madaniyatining gullab-yashnashi Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy aloqalar rivojlanishiga turtki berdi. Bu davrda arab xalifaligi o'z kuch-qudratining cho'qqisiga yetib, boshqa madaniyatlar, xususan, yunon va hind ilmiy merosini o'zlashtira boshlagan edi. Ayniqsa, Bag'doddagi "Baytul hikma (Bilimlar uyi)" ilmiy va falsafiy izlanishlarning markaziga aylangan. Bu maskanda yunon, hind va fors ilmiy meroslari arab tiliga tarjima qilinar va tizimlashtirilardi. Bu tarjima harakati orqali yunon falsafasi, Arastu va Aflotun kabi olimlarning asarlari Sharqda keng tarqaldi va ilmiy tafakkur rivojiga katta hissa qo'shdi.

Bu kabi yirik ilmiy rivojlanishning ta'siri G'arbga qadar yoyilishida albatda tarjimonlik faoliyati ham eng asosiy omillardan biri bo'lgan. Lekin, unutmazlik kerakki IX–XIII asrlarda bu jarayonlar "arabshunoslik" yoki "islom dinini o'rganish" atamallari bilan yuz bergan.

"Fan tarixida arabshunoslik sohasi Yevropada aslida XVI asr so'nggida shakllangan, degan g'oya hukmronlik qilsa-da, XII–XIII asrlarda ijod qilgan tarjimonlar faoliyatining tahlili, ular arab tilidagi asarlarni nafaqat lotin tiliga o'girganliklari, balki tarjima qilingan asarlarni tadqiq etib, ayni tarjimalar asosida o'zlarning yangi-yangi asarlarini yaratganliklaridan dalolat bermoqda. Shu sababdan XII–XIII asrlarni Yevropada arabshunoslik sohasining yuzaga kelishidagi ilk bosqich, deb baholash to'g'ri bo'ladi". Shundan kelib chiqib sharqshunoslikning ilk bosqichi bu davrda ayni arabshunoslikdan boshlanganini taxmin qilish mumkin. Jarayon ayni Ispaniyada arablar hukmronligi o'rnatilgan hududda boshlangani ham, bu teoriyaning noto'g'ri emasligini ko'rsatadi. Bu davrdagi bir qancha tarjimonlik markazlari orasida "Toledo" tarjimonlik maktabi ko'plab tarjima qilingan asarlari bilan ajralib turdi. "XII–XIII asrlarda Toledo maktabida tarjima qilingan 123 ta asar aniqlanib, ular davriy va fanlar kesimida klassifikatsiya qilingan (asarlari 48 nafar muallif: 11 nafar antik davr, 32 nafar o'rta asr Sharq, 5 nafar Markaziy Osiyo olimlari qalamiga mansub bo'lib,

ularning 56 tasi aniq fanlarga, 31 tasi tabiiy fanlarga, 36 tasi ijtimoiy fanlarga oid, asarlarning 25 tasi markaziy osiyolik olimlarga tegishli). Bu esa "Toledodagi maktabning fan tarixida tutgan o'rni nihoyatda muhim bo'lib, u XII–XIII asrlarda Sharq ilm-fan yutuqlarini G'arbga yetkazib beruvchi «tranzit punkti» vazifasini bajargan" degan xulosaga kelish mumkin.

**Xulosa.** Germaniya arabshunoslik maktabi Sharq tadqiqotlari tarixida alohida o'rin egallagan ilmiy yo'nalish bo'lib, uning shakllanishi, rivoji va ilmiy uslubi asosan XIX–XX asrlarda Qarbyevropa ilmiy maktablarining umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nemis arabshunoslari Sharq ilmiy merosining manbashunoslik, filologiya, tarix, teologiya, falsafa va madaniyatshunoslik jihatlarini chuqur o'rganib, Yevropada arab ilmiy-madaniy merosining keng tan olinishiga katta hissa qo'shgan.

Tadqiqotlar sharhida Theodor Nöldeke, Carl Brockelmann, Joseph Schacht, Friedrich Dieterici, Hartmut Bobzin kabi olimlarning ilmiy merosi Germaniya arabshunoslik maktabining metodologik poydevorini tashkil etgani aniqlandi. Ularning Qur'on matnshunosligi, hadis tadqiqotlari, islom huquqi, arab adabiyoti tarixi va arab tilshunosligiga oid ishlarida qo'llagan manbashunoslik yondashuvlari bugungi kunda ham arabshunoslik fanining eng muhim ilmiy standartlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Germaniya arabshunoslik maktabi Sharq qo'lyozmalarini ilmiy tahlil qilish, matnlarni tanqidiy nashr etish, filologik izohlar berish hamda ilmiy apparatni puxta ishlab chiqish bilan ajralib turadi. Ushbu maktabning ilmiy yutuqlari bugungi kunda ham arab tili va adabiyoti, islom huquqi va teologiyasi, tarix va madaniyatshunoslik sohaslarida yangi tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya arabshunoslik maktabi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili ushbu yo'nalishning global arabshunoslik fani shakllanishidagi beqiyos o'rmini, ilmiy metodologiyaning puxtaligini va Sharq ilmiy merosining chuqur o'rganilishiga qo'shgan ulkan hissasini yana bir bor tasdiqlaydi. Mazkur maktabning merosi va ilmiy yondashuvlari hozirgi davrda ham o'z dolzarbligini yo'qotmay, yangi izlanishlar uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Mahmudov O.V. Yevropada Markaziy Osiyo olimlari ilmiy merosini o'rganishda Toledo maktabining o'rni (XII–XIII asrlar). — Toshkent: 2018.
2. Mahmudov O.V. Toledo maktabi – afsona yoki haqiqat: H.T.S. Santoyo va A. Kalashnikovga raddiyalar. O'tmishga nazar. — 4-jild, 4-son. — Toshkent: 2021.
3. Edward Said. Orientalism. — New York: Pantheon Books, 1978.
4. Dimitri Gutas. Greek Thought, Arabic Culture: The Graeco-Arabic Translation Movement in Baghdad and Early 'Abbasid Society. — London: Routledge, 1998.
5. Adam Mez. Die Renaissance des Islams. — Heidelberg: Carl Winter, 1922.
6. R. Dozy. Essai sur l'histoire de l'Islamisme. — Paris: 1879.
7. George Sarton. Introduction to the History of Science. — Baltimore: Williams & Wilkins, 1927.
8. Gerhard Endress. Arabisch-islamische Kultur. — München: C.H. Beck, 2006.
9. Josef van Ess. Theologie und Gesellschaft im 2. und 3. Jahrhundert Hidschra. — Berlin; New York: Walter de Gruyter, 1991.
10. Richard Southern. Western Views of Islam in the Middle Ages. — Cambridge: Harvard University Press, 1962.
11. Charles Burnett. Arabic into Latin in the Middle Ages: The Translators and Their Intellectual and Social Context. — Aldershot: Variorum, 2009.
12. Herodotus. Histories. (Loeb Classical Library edition). — Cambridge: Harvard University Press, 1920.
13. Xenophon. Anabasis. — Loeb Classical Library. Cambridge: Harvard University Press, 1925.
14. Tacitus, Cornelius. Annales. — Loeb Classical Library. Cambridge: Harvard University Press, 1937.
15. Livy, Titus. Ab Urbe Condita. — Loeb Classical Library. Cambridge: Harvard University Press, 1919.
16. Procopius of Caesarea. History of the Wars. — Loeb Classical Library. Cambridge: Harvard University Press, 1914.
17. Menander Protector. Fragments of the History. — Oxford: Clarendon Press, 1985.
18. Theophylact Simocatta. The History. — Translated by M. Whitby. — Oxford: Clarendon Press, 1986.
19. Rosenthal, Franz. The Classical Heritage in Islam. — London: Routledge, 1975.